

VATAN MANZUMASI

DUNYONING JANNATI

Qadim xatlar aro kelar bir sado,
Bu elning koʻksi togʻ, qadri osmondur.
Kim ne desa desin, qilmasman parvo,
Jahon ichra oʻzi bitta jahondur –
Dunyoning jannati Oʻzbekistondur!

Jadidlar jon chekib izladi tongni,
Istadi hurriyat baxsh etar onni.
Yorugʻlikka olib chiqdi Karvonni –
Sardori Yaratgan suygʻan sarbondur,
Dunyoning jannati Oʻzbekistondur!

Qonida bor azal gʻoliblik ruhi,
Ham Yer uzra ekar doʻstlik urugʻin.
Bu – baland choʻqqida hilpirab tugʻi,
Manglayida quyosh balqqan oshyondur,
Dunyoning jannati Oʻzbekistondur!

Oʻzbek degan kalom yurakka yaqin,
Qancha doston boʻlar aylasam talqin.
Vatan – iqbolimni yoritgan chaqin,
Tayanch-u iftixor – jon ichra jondur,
Dunyoning jannati Oʻzbekistondur!

Rizqidek pok paxta, bugʻdoy dalasi,
Yoqtirgan qoʻshigʻi – tinchlik yallasi.
Shundan dadil yangrar ona allasi,
Beshigida kulgan bekdir, sultondir,
Dunyoning jannati Oʻzbekistondur!

Zohidjon OLOV

SHARH

Paxta – oʻzbek xalqi uchun yaqin tariximizda faqatgina majburiy mehnat va azob ramzi boʻlib kelgan ekin. Yuz yildan ortiq davom etgan bu zahmatdan endigina qutuldik. Ammo shuni anglash kerakki, paxtadan butunlay voz kechish emas, balki uni isloh qilish, innovatsion texnologiyalar yordamida hosildorlikni oshirish va chidamli navlarni ekish orqali yangi marralarga erishish zarur.

Joriy yilgi paxta mavsumida respublika boʻyicha 280 ming gektar maydonga esa anʼanaviy usul qoʻllandi. Ayniqsa, sohaga ilgʻor agrotekhnologiyalar, ilmiy va innovatsiya yutuqlari keng joriy etilayotgani ijobiy natija bermoqda. 2024-yili 100 ming gektar maydonda kasallik va zararkunandalarga chidamli serhosil gʻoʻza navlari ekilib, ulardan moʻl hosil yetishtirilgani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Vaholanki, soʻnggi yillarda global iqlim oʻzgarishlari, tabiiy ofatlar, yer va suv resurslari taqchilligi qish-



PAXTA – KECHAGI AZOB, BUGUNGI IMKONIYAT:

OQQ VA QORA

loq xoʻjaligi sohasida ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani hech kimga sir emas. Ana shunday murakkab sharoitga qaramasdan, oʻtgan yili fermerlarning mashaqqatli mehnati bilan yurtimizda 9 million tonna don, 3 million tonnadan ortiq paxta, 16 million tonnadan ziyod sabzavot va poliz mahsulotlari, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 15 million tonnadan koʻp goʻsht va sut, 30 ming tonna pilla yetishtirilgani – chinakam qahramonlik namunasi, desak toʻgʻri boʻladi.

Albatta, bunday ulkan yutuqlarga erishishda keyingi yillarda qishloq xoʻjaligi rivojiga berilayotgan yuksak eʼtibor, tarmoqda tub tarkibiy oʻzgarishlar amalga oshirilib, ishlab chiqarish munosabatlari zamon talablari asosida yoʻlga qoʻyilayotgani hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlmoqda.

Bugun paxta desa odamlarning yuragi zirillaydigan kunlar ortda qoldi. Mana, oʻquvchi-yu talabasiz, oʻqituvchi, byudjet tashkilotlari xodimlarisiz ham paxta nes-nobud qilinmasdan terib olinaypti. Buning sababi oddiy – paxta-

da manfaat bor. Dehqon mehnati qadr topmoqda. Ushbu manfaat va qadr esa paxtachilikda yaratilgan huquqiy asos tufayli taʼminlanaypti.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxta-toʻqimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish choratadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni ham paxtachilikni majburiy mehnatdan xoli, sardaromad sohaga aylantirish, toʻqimachilik va qayta ishlash sanoatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiluvchi muhim hujjatlardan biri boʻldi.

(Davomi 2-sahifada).

MUNOSABAT

ENDI USTOZ QADRI HAM
AVVALGILARGA OʻXSHAMAS

– Faxriy unvon nafaqat mening, balki Oltiariq tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab jamoasi, shogirdlar, ularning ota-onalari va hamkasblarimning umumiy yutugʻidir.

Inson bir yoshga ulgʻaysa yoki hayotida muhim voqea sodir boʻlsa, beixtiyor ortda qolgan umriga bir nazar tashlaydi. Prezidentimiz qoʻlidan mukofotni olar ekanman, men ham oʻzimning, umuman, oʻqituvchilarning oʻtgan kunlariga nazar tashladim. 53 yildan buyon taʼlim sohasida mehnat qilyapman. Koʻrgan-kechirganlarimdan kelib chiqib, baʼzi mulohazalarni aytishga ozmi-koʻpmi maʼnaviy haqqim bor, deb oʻylayman.

Bilasiz, harbiylar 14-yanvar kuni ham oʻz postida sobit turadi. Ularning ishini yigʻishtirib qoʻyib, bayramni nishonlashini tasavvur qilolmaymiz. 1-oktyabr esa taqvimda qizil bilan belgilangan. Shunga qaramay, yaqin-yaqingacha bu kunni oila bagʻrida, hamkasblar bilan bayramona davrada emas, paxta paykallari boshida qarshi olardik. Oʻzimiz boʻlsak ham bir navi edi, atrofimizda oʻquvchilar ham kattalarga boʻylashib paxta terardi. Ayrimlar “ixtiyoriy hashar” davriga romantik kayfiyat berishga harakat qilardi.

(Davomi 3-sahifada).

TARIX VA BIZ

VORISLIK MASʼULIYATI

yoxud Qashqadaryo viloyatidagi yodgorliklar haqida

Qashqadaryo – qadimiy va tabarruk voha, bu koʻhna zamindan koʻplab allomalar, sarkardalar, olim-u fuzalolar yetishib chiqqan. 2700 yillik tarixga ega Qarshi va Shahrisabz shaharlari qadimgi dunyo sivilizatsiyasida alohida oʻrin tutadi.

Chindan ham, Qashqadaryo viloyati tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylarga boy. Ular yosh avlodni Vatanga sadoqat, oʻtmishga hurmat, ajdodlarga munosib vorislik ruhida tarbiyalashi barobarida hududda turizm rivojiga ham muhim hissa qoʻshadi. Xususan, Shahrisabzdagi Oqsaroy majmuasi, Qarshi shahridagi Abu Ubayda ibn Jarroh, Qarshi tumanidagi Abul Muin Nasafiy, Kasbi tumanidagi Sulton Mirhaydar, Koson tumanidagi Qusam shayx, Kitob tumanidagi Hazrati Bashir, Gʻuzor tumanidagi Miri Janda, Qamashi tumanidagi Langar ota ziyoratgohlari

maʼmuriy va xorijlik sayyohlar eʼtiborini tortib kelmoqda.

Maʼlumotlarga koʻra, Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi tomonidan jami 1468 ta obyekt muhofazaga olingan boʻlib, shulardan 1197 tasi arxeologiya, 208 tasi arxitektura, 35 tasi haykal va boshqa diqqatga sazovor obyektlardir. Afsuski, har bir hududda eʼtibordan chetda qolayotgan, uy-joy qurilishi, gʻisht ishlab chiqarish, dala maydonlarini kengaytirish hisobiga yoʻq boʻlib ketayotgan tarixiy joylar yoʻq emas.

(Davomi 6-sahifada).

FAKT

MULOHAZA

QODIRIYDAN
QOLGʻON QAYGʻU

Yaqinda oshnamiz nevarasini uylantirdi. “Kelin salom” marosimiga bir xalfa ayolni aytgan ekan – kelin ulovdan tushayotganida “Toʻylar muborak”ni chalaroq aytdi-yu, “Ana langur, mana langur...” deb mazmuni ortida uyatli holat tushuniladigan termanni boshlab yubordi, deng. Yoshi ulugʻroq kishilar uyatdan koʻzlarini qayga yashirishni bilmas, qiz-u juvonlar yigitlar bilan oʻrtada javlon urishar, nihoyada duoga qoʻl ochadigan imom yerga qarab olgandi...

Qoʻshnimiz bilan toʻydan qaytishda yoʻl-yoʻlakaygurungimiz hozirda koʻpayib ketgan maza-matrasiz qoʻshiqlardan boshlanib, milliy anʼanalarimizga mutlaqo zid seriallarga burildi. “Televizorni bola-chaqa yonida koʻrolmaydigan boʻldik. Ayniqsa, seriallardagi ochiqdan chiq behayo sahnalar, tavba deb gapiray, kelin-u qaynota “sevgisi”, oʻta nozik qochirilmalari

yoshgina artistlar hech tortinmay aytishlari... Bularni nazorat qiladigan bormikan?” deb hasratlandi qoʻshnim. “Siz “bola-chaqa yonida koʻrolmaydigan boʻldik”, degan oʻsha seriallarni bolalarsiz oʻzingiz koʻrasizmi?” degan savolimga qoʻshnim javob berolmay qoldi. “Avvalo, har birimiz oʻzimizni nazorat qilishimiz kerak”, deb uni xijolatdan qutqardim.

Ijtimoiy tarmoqlarda teleseriallardagi tuturuqsiz, bemaʼni sahnalar haqida havola qoʻyilmagan kunning oʻzi yoʻq. Vaqtli matbuot bular haqida qancha bong urdi, asosli mulohazalarni yoritdi – natija esa koʻrinmayapti.

Nega shunday boʻlyapti? Toʻgʻrirogʻi, nega shundaymiz? Bu iddao koʻproq tomoshabiga tegishli. Negaki, telekanallar reytingi monitoring qilinganida, aynan seriallar berilayotgan vaqtda koʻplar ekran qarshisida “mixlanib” oʻtirishi aniqlangan.

(Davomi 5-sahifada).



PAXTA – KECHAGI AZOB, BUGUNGI IMKONIYAT:

OQQ VA QORA

Boshlanishi 1-sahifada.

Aslida, paxta bizga begona emas. Manbalarda keltirilishicha, paxtaning yurtimizdagi tarixi qariyb ikki asr quyiga borib taqaladi. Keyinchalik paxta sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan respublikaning asosiy ekin darajasiga ko'tarilib, uni yetishtirish tartibi, narxi va boshqa jihatlari markazdan belgilab beriladigan bo'ldi. Lekin uning samarasich-i? Ushbu strategik ekin oddiy dehqonga, odamlarga, umuman, O'zbekistonga qanchalik naf berdi?

Afsuski, bu savollarga ijobiy javob bera olmaymiz. Chunki yaqin o'tmishimizdan ma'lum: oq paxta biz uchun faqat qora mehnat va mashaqqat keltirdi. Qancha-qancha odamlar, oilalar boshiga ana shu oppoq paxta tufayli qora kunlar tushdi. Hosilni yig'ib olish uchun qimirlagan jon borki, dalaga safarbar qilindi. Odamlar hatto janozalardan paxta dalasiga haydab ketildi. To'y-u marosimlarga paxta mavsumida qat'iy cheklovlar qo'yildi. Hosilni terib olish ishlari qahraton qishgacha cho'zilishi oddiy holga aylandi.

Katta avlod vakillari yaxshi eslashadi: paxta siyosati zulmga, o'zbek xalqiga nisbatan qirg'in quroliga aylangan. Tomorqalargacha majburlab paxta ektirishgan. "Kukuruz" deyiladigan samolyot g'o'zani emas, paxtakorlarni, erta-yu kech dalasidan beri kelmagan sodda dehqonni, eng yomoni, onalarni, xotin-qizlarni, bolalarni defolyatsiya qilardi. O'quvchi va talabalar sentyabr oyining boshidan paxta dalasiga haydalar va Yangi yil bayrami arafasida qaytardi. Qishda atigi uch oy o'qigandek bo'lardi.

Esimda, 13-14 yoshimda qahraton dekabrda paxta terimiga olib chiqishgan. Dalada paxta qolibdimi? Qayoqda, qop-qora chanoqlar qorga burkangan. Paxtani terish emas, izlash kerak. Daladan chiqish yo'q. Bu siyosatda sog'lom aqlga to'g'ri keladigan mantiq bormidi? Buni hech kim o'ylamasdi. O'ylagandan naf yo'q edi. Ammo minglab chaqirim naridagi "tepadagi"lar, aniqrog'i, "shonli partiya" dohiylarining kirdikorlarini pardalash uchun terimchilarga, mahalliy rahbarlarga mukofotlar ulashilardi. Chunki o'sha davrlar paxta ekish va terish siyosiy kampaniyaga aylangan, bu ishdan yoshu qari, ayol-u erkak, sog'u-n nosog'lom – hech kim chetda qolishi mumkin emasdi. Respublikada "paxta ishi", "o'zbeklar ishi" degan katta tomoshalar bo'lib o'tgani hamon yodimizda. Qama-qama, ur-sur boshlandi.



Ayrim rahbarlar o'zini otdi, ayrimlari osdi, qolganlari uzoq yillarga qamaladi. Qamoqda ham sirli o'limlar ko'paydi.

Xullas, gapiraman desa, gap ko'p. Paxta deb yetib kelgan joyimiz shu bo'ldiki, sariq, kamqonlik, raxit, gipotrofiya, ichburug' kabi son-sanoqsiz kasalliklar bolalarning ma'sum dunyosiga ko'p boshli ajdarhoday bostirib kirdi. Paxtaga ishlatilgan dorilar, uning qora mehnati haqida yozishga o'sha vaqtlarda hech kimning haddi sig'madi. Dalada zaharlangan, kasallik orttirgan xotin-qizlar ozmidi? Hech kimga dardini aytolmay, kasalligining na sababini, na davo yo'llarini bilmay olamdan o'tganlar qancha.

Istiqlolga erishganimizdan keyin ham, afsuski, 25 yil davomida paxta qutqusidan xalos bo'la olmadik. Endi xalqaro jamoatchilik, ayniqsa, yirik fond birjalarning egalari bo'lgan AQSH va Britaniya kabi davlatlar o'zbek paxtasini, pilla bilan bir qatorda

majburiy mehnat mahsuli bo'lgan mahsulotlar ro'yxatida qoldirdi. Xalqaro hamjamiyat O'zbekistonga bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish yuzasidan bosim o'tkazib keldi.

AQSH Mehnat vazirligi dunyo bo'ylab "Bolalar mehnati va majburiy mehnat natijasida yetishtirilgan mahsulotlar ro'yxati"ni tuzishni boshlagan 2009-yildan buyon O'zbekiston ayniro'yxatdan o'rin olib kelayotgandi. AQSH hukumati hisobotida yetti yashar maktab bolalarigacha muntazam ravishda paxta yig'im-terimiga jalb qilib kelingani tinmay tanqid ostiga olinardi. Bolalar og'ir sharoitlarda paxta terish va yashashga majburlangan, ularga haq to'lanmagan yoki juda kam to'langan yoxud ishlagan haqlari ovqat va yotoq uchun ushlab qolingani, degan haqli malomatlar yog'dirildi. Paxtaga chiqmagan bolalar jazolangan, deyiladi hisobotlarda.

O'zbekiston paxta sanoatida bolalar mehnatidan foydalanish ko'lami 2016-yildan qisqara boshladi va 2017-yildan bolalarni paxtaga majburan olib chiqish holatlari bartaraf etildi. Xalqparvar rahbar Shavkat Mirziyoyevning sa'y-harakatlari bilan nafaqat bolalar majburiy mehnatiga, balki o'qituvchi va shifokorlarni ommaviy paxta dalalariga haydash kampaniyasiga ham butkul chek qo'yildi. AQSH Mehnat vazirligi O'zbekistonning bolalar mehnatiga chek qo'yish yuzasidan ko'rgan choralarni e'tirof etdi. Prezidentimizning bu boradagi qat'iy harakatlarini butun dunyo olqishladi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan tatbiq etilayotgan yangi g'oyalar, innovatsiya va nou-xaular agrar sektorni sanoatlashtirish, qishloq aholining hayot darajasini yuksaltirishga xizmat qilayotgani bor gap. Xususan, amaliyotga klaster tizimi joriy etilib, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish va chuqur qayta ishlashning "zanjirli usul" yaratildi. Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, bu borada yuzaga kelayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan samarali mexanizm yuzaga keldi.

Klaster tizimidan ko'zlangan birinchi maqsad – yerdan samarali foydalanish va chetga xomashyo emas, qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar sotib, daromadni oshirish orqali dala mehnatkashlarining hayot darajasini ko'tarishdir. Zero, agrar jabhadagi natijalar birgina hosildorlik ko'rsatkichi bilan o'lchanadigan davrlar o'tib ketdi. Olinadigan daromad va sof foyda asosiy mezonga aylanishi kerak.

Oddiy misol, fermerlar tolaning bir kilosini 1,5 AQSH dollariga sotsa, klasterlar paxta xomashyosini bunday arzon bahoga sotmaydi. Ularda 1,5 dollarlik xomashyoni 25 dollar qiymatga aylantirish imkoniyati bor. Mana, klasterning asosiy ustunligi qayerda?!

Klasterning yana bir afzalligi aholi bandligini ta'minlashda ko'zga tashlanmoqda. Chunki har 100 gektarda 15–25 nafar kishi doimiy ish bilan ta'minlanishi, ularga mehnat daftarchasi ochilib, oylik maosh berilishi kerak. Afsuski, fermer xo'jaliklarida amalda buning uddasidan chiqilmagani oqibatida chekka hududlarda ishsizlik masalasi eng og'riqli muammoga aylangandi. Klaster usuliga o'tilgach, odamlar yil – o'n ikki oy ish bilan ta'minlandi, mehnatiga yarasha haq olish imkoniga ega bo'ldi. Bugun ular qishloq xo'jaligidagi islohotlar samaralarini o'z hayotida his qilmoqda.

Avvallari biz uchun turgan-bitgani zararga aylangan paxta oxirgi yetti yilda eng daromadli ekinga aylandi. Nima uchun? Masalan, bitta ko'ylakning og'irligi 85 gramm. Bir kilogramm toladan o'nta yaxshi ko'ylak chiqadi. Ularni besh dollardan sotadigan bo'lsak, o'nta ko'ylak 50 dollar bo'ladi. Endi e'tibor qiling, olaylik, bizda bir million tonna tola bor. Bu kamida 50 milliard dollar, degani. Agar, biz uni yanayam chuqur ishlaydigan bo'lsak, paxtaning o'zidan 100 milliard dollar daromad qilish mumkin. Vyetnam paxta ekmaydi, lekin har yili 50 milliard dollardan ko'p paxta-to'qimachilik mahsulotlarini eksport qiladi. Bangladesh har yili taxminan 10–12 ming gektar yerda paxta yetishtirib, 40 milliard dollarlik mahsulotlarni eksport qiladi.

Shu bois, yurtimizda paxtani chuqur qayta ishlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chuqur qayta ishlashni yo'lga qo'ysak, paxtachilikdan ko'ra yaxshi daromad beradigan soha yo'q. Lekin ishni tizimli, tartibli amalga oshirishimiz kerak. Birinchidan, yerlarimizni sozlash, ikkinchidan, suv tejovchi texnologiyalarni qo'llashimiz kerak. Uchinchidan, hamma paxta mashinada terib olinishi lozim. Bularning hammasi esa ilm, innovatsiyani talab etadi.

Tan olishimiz kerak, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi uzoq muddat eski qoliplarda qolib ketdi, sohaga yangicha yondashuvlar, nou-xaular deyarli tatbiq etilmadi. Imkoniyatlardan samarali foydalanmaslik oqibatida, yetishtirilgan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari tushib ketdi. Bozor subyektlari o'rtaqidagi o'zaro huquqiy-iqtisodiy munosabatlarga, faoliyat samaradorligi va raqobatdoshlik ko'rsatkichlariga jiddiy putur yetdi, fermerlarda yerga egalik hissi yo'qoldi, qishloq mehnatkashlarining moddiy manfaatdorligi, kelajakka ishonchi pasaydi. Faqatgina keyingi yillarda sohaga yangi havo kirib, dehqon va sanoatchilarning manfaatlarini mushtaraklashdi, yetishtirilayotgan xomashyoni chuqur qayta ishlash halqasi vujudga keldi.

Bugun odamlar tumanimiz, viloyatimiz yoki respublikamiz qachon "plan"ni to'ldirar ekan, deb har kuni televizorda beriladigan hisobot-jadvalini intiqlik bilan kutayotgani yo'q. Endi paxta qish kunlarigacha dalada qolib ketmaydi. Nega? Chunki xalqimiz paxta degan ekin boshga balo emasligini anglab yetdi, paxta siyosat emas, daromad ekiniga aylanib ulgurdi.

Jamoliddin BADALOV

AKS SADO

"Jadid" gazetasida Mizrob Bo'ronovning "Internet xumori yoxud asalning ham ozi shirin" maqolasini o'qidim. Darhaqiqat, bu masala bugun jiddiy tus olgan. Bilamizki, tabiiy gazning hidi yo'q. Ana shu ko'zga ko'rinmas ne'atsizm turmush tarzimizni tasavvur qila olmaymiz. Lekin tabiiy gaz ehtiyotsiz yondashuv tufayli inson hayoti uchun katta xavf tug'dirishi mumkin. Hamma gap me'yorga va foydalanish qoidalariga amal qilishda.

Ushbu maqolada ta'kidlab o'tilgan "Internetomaniya" kasalligi ham xuddi mana shu is gaziga o'xshaydi.

INTERNET –

IKKI QIRRALI VOSITA

Bir tomondan, u bilim manbayi, ijodkorlik maydoni, ishlab chiqarish va boshqaruv samaradorligini oshiruvchi mexanizmdir. Ta'limda masofaviy kurslar, onlayn platformalar va elektron kutubxonalar o'quvchi va talabalarga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Sog'liqni saqlashda telemeditsina xizmatlari, biznesda elektron savdo va raqamli marketingning keng qo'llanilishi buning yorqin misolidir.



Ikkinchi tomondan, internetdan noto'g'ri foydalanish inson ongini egallovchi va ijtimoiy muvozanatni buzuvchi xavfli kuchga aylanishi mumkin. Psixologlar bunday holatlarda "virtual qochish sindromi" haqida gapiradilar: foydalanuvchi real hayotdagi muammolardan qochib, virtual dunyoga sho'ng'iydi va vaqt o'tishi bilan unda ijtimoiy izolyatsiya, emotsional beqarorlik va hayotiy motivatsiyaning susayishi kuzatiladi.

INTERNETOMANIYANING

OQIBATLARI

Vaqt resursining yo'qotilishi. Haddan tashqari foydalanish natijasida inson o'qish, mehnat va oilaviy majburiyatlarini e'tiborsiz qoldiradi;

OGOHO BO'LING: "INTERNETOMANIYA"

Jismoniy sog'liq muammolari. Ko'z zo'riqishi, uyqusizlik, bo'g'im og'riqlari, jismoniy faoliyatning kamayishi kuzatiladi.

Psixologik izdan chiqish. Stress, tashvishlanish, depressiya va real hayotga qiziqishning pasayishi keng tarqalgan simptomlar sirasiga kiradi.

Ma'naviy yemirilish. Yoshlar orasida befoyda kontent va zararli g'oyalarga qiziqish ortib, milliy qadriyatlar va madaniy identifikatsiya zaiflashadi.

Ijtimoiy aloqalarning susayishi. Virtual muloqot real insoniy munosabatlarni cheklab qo'yadi, bu esa jamiyatdagi ijtimoiy kapitalni pasaytiradi.

Bugungi kunda bu muammo faqat o'smirlar va yoshlarga xos emas. Katta yoshli insonlarning ham ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lib borayotgani muammoning qamrovi kengligidan dalolat beradi.

MUAMMONING ILDIZI

Internetdagi asosiy xavf "axborot ifloslanishi" (information pollution) hodisasi bilan bog'liq. Foydali va ilmiy ma'lumotlar

bilan bir qatorda, behuda va zararli axborotlar ham tezkor tarqalmoqda. Avvallari bunday xavf ko'proq xorijiy kontentdan kelar edi, endilikda o'zbek tilidagi segment ham bundan mustasno emas.

Virtual olamda ko'plab yoshlar ma'naviyatga zid ozuqalar bilan ulg'aymoqda. Bu jarayonning salbiy jihati shundaki, ma'naviy zaiflik va noto'g'ri qarashlar jamiyat bo'ylab yuqumli kasallik kabi tarqalib, nasldan naslga o'tmoqda. Bu esa uzoq muddat milliy ma'naviyat va madaniy barqarorlikka jiddiy putur yetkazishi mumkin.

Muammoning yana bir ildizi – iqtisodiy va ijtimoiy madaniyatning o'zaro ta'sirida ko'rinadi. Internet orqali tez foyda topishni maqsad qilgan ayrim guruhlar turli yolg'on xabarlar, fitna nazariyalari va manipulyativ materiallar ishlab chiqarib, ulardan daromad orttiradilar. Bunday kontent tez tarqaladi, chunki u ko'pincha shov-shuvli, hissiyotga yo'naltirilgan bo'ladi. Natijada jamiyatda noto'g'ri qarorlar qabul qilinishi, ishonchsizlik, hatto siyosiy va ijtimoiy beqarorlik yuzaga kelishi mumkin.

Yoshlarning katta qismi vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazmoqda, bilim olish yoki ko'nikma rivojlantirishga sarflanishi kerak bo'lgan vaqt o'rinlar, kulgi va turli befoyda kontentga sarflanmoqda. Shu bois, muammoning ildizini faqat texnologiyada emas, balki jamiyatdagi axborot madaniyati pastligi, mediasavodxonlikning yetarli emasligi va oilaviy nazoratning sustligida ham ko'rish lozim.

Shuni unutmash kerakki, kelajak texnologiyalarga tegishli. Ammo texnologiyalarning kelajagi inson ongining qanchalik mas'uliyatli, oqil va ma'naviy pishiq bo'lishiga bog'liq. Demak, bugungi avlodni internetdan to'g'ri foydalanishga o'rgatish nafaqat ijtimoiy-psixologik muammoni hal etish, balki milliy taraqqiyot va madaniy barqarorlikni ta'minlashning ham muhim omilidir.

Sh.MUSTAFAYEV,
Kattaqo'rg'on davlat
pedagogika instituti prorektori



ENDI USTOZ QADRI HAM AVVALGILARGA O‘XSHAMAS

Boshlanishi 1-sahifada.

Lekin o‘z ishing qolib, mutlaqo boshqa ish bilan “ixtiyoriy-majburiy” shug‘ullanishda qandaydir romantika bo‘lishi fantastika emasmi? So‘z ustasi Avaz Oxunning “Sinf jurnali tabelchining qo‘lida turardi”, degan hazili tagida zil tarix borligi hech kimga sir emas.

Ming shukur, bugun zamon o‘zgardi, odamlarning dunyoqarashi o‘zgardi. Prezidentimiz tomonidan ustoz va murabbiylar mehnati yuksak qadrlanib, ta’limning barcha bosqichlari birday rivojlanish yo‘liga chiqdi. Maoshlarning ko‘tarilgani, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlangani bir bo‘ldi, jamiyatda o‘qituvchining obro‘-e‘tibori ko‘tarilgani bir bo‘ldi. Bugun “o‘qituvchiman” degan so‘zni yelka qismay, ko‘krak kerib aytadigan bo‘ldik. Men faoliyatimni oddiy tarbiyachilikdan boshlaganman. Yillar davomida qilgan mehnatlarim 2016-yilda ilk bor davlat darajasida e’tirof etilib, “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukofotlangan edim.

Ixtisoslashtirilgan maktabimiz o‘quvchilari respublika va xalqaro fan olimpiadalari, kitobxonlik tanlovlari, sport bellashuvlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda. Yutuqlar o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q. Bugun ustoz va murabbiylarga berilgan imtiyoz va imkoniyatlar bu boradagi ishlarga qanot bag‘ishlamoqda. Ustoz sifatida shundan xursandmanki, bizning mehnatimiz



Hamidjon RAHIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi
xalq o‘qituvchisi

nafaqat qadrlanmoqda, balki yoshlarimizning har bir yutug‘i jamiyat taraqqiyoti bilan uyg‘un baholanmoqda.

Bugun yuzlab, minglab shogirdlarim turli sohalarida mehnat qilib kelyapti. Ular orasida shifokor ham, muhandis, olim, davlat xizmatchisi ham bor. Shogirdlarim har gal “Ustoz, sizdan o‘rgandik”, deb minnatdorlik bildirsa, umrim zo‘ye ketmaganiga xursand bo‘laman. Hayotimni ta’limga bag‘ishlab, shogirdlarimning muhabbati va mehrini topganimdan baxtiyorman.

Bugun yuksak ehtirom va e‘zozdaman. Buning uchun muhtaram Prezidentimizga, xalqimizga cheksiz minnatdorlik bildiraman.

EL-YURTIM MENGA “TANKA” BO‘LDI

Odatda, biz – o‘qituvchi va murabbiylar yilda bir kun – 1-oktyabrda kasb bayramini nishonlaymiz. Bu yil esa shodiyonalar 9-sentyabrdan boshlandi. Shu kuni Davlatimiz rahbari raisligida maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi sohasidagi islohotlar ijrosi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Oradan ikki kun o‘tib, ta’lim-tarbiya tizimida alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risidagi farmon e‘lon qilindi. 15-sentyabr kuni Prezidentimiz davlat mukofotlarini egalari topshirib, pedagoglar bilan muloqot qildi. Bu uchrashuv yosh o‘qituvchi sifatida hayotim va faoliyatimda tub burilish pallasini boshlab berdi.

Prezident bilan muloqot imkonidan foydalanib, Buxoro viloyati studiyasidan ko‘pdan buyon o‘ylab yurgan taklifimni bildirdim.

Men xalqaro donor tashkilotidan 120 ming AQSH dollari grant mablag‘ini jalb qilib, O‘zbekistondagi davlat va nodavlat tashkilotlari uchun grant takliflarini tayyorlash loyihasini amalga oshirdim. Loyihada ishtirok etgan 112 nafar tinglovchi 6 oy ichida men jalb qilgan mablag‘dan 10 barabar ko‘p, ya’ni 1 million 200 ming dollar xalqaro grantlarni mamlakatimizga olib kirdi. Bu mamlakatimizda xalqaro donorlar bilan samarali ishlash mumkinligining yorqin namunasidir.

Ammo hozirgi kunda grantlar asosan OO‘Y doirasida jalb etilmoqda. Universitetlarda grant yozish ko‘nikmasiga ega kadrlar ko‘p, ammo maktablarda bunday mutaxassislar yetarli emas. Shu bilan birga, aynan maktablarni rivojlantirish uchun xalqaro donorlar ajratadigan mablag‘lar katta, imkoniyatlari esa keng.

Ma’lumki, Prezidentimiz tashabbusi bilan barcha maktablarda maslahatchi lavozimi joriy etildi. Agar maktab maslahatchilarini grant yozish va xalqaro investitsiya jalb qilish bo‘yicha maxsus kurslarda o‘qitsak, ular maktablard doirasida ham xalqaro investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarda teng va izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbariga agar shunday kurslar tashkil etilsa, maslahatchilar uchun mahorat darslari o‘tkazishga va’da berdim. Bosh vazir o‘rinbosariga men bilan ishlashga ko‘rsatma berilganidan boshim ko‘kka yetdi.

Grantlarning ahamiyati va foydasini shaxsiy tajribamda ko‘rganman.

Men “El-yurt umidi” jamg‘armasi ko‘magida Buyuk Britaniyaning Reding universitetida tahsil olib, imtiyozli diplom bilan qaytdim. To‘g‘risi, bir necha nufuzli tashkilotlardan ishga taklif oldim.



Billura IKROMOVA,
Romitan tumanidagi
38-umumta’lim maktabining
ingliz tili fani o‘qituvchisi

Ammo men uyimizdan 230 kilometr uzoqda, Xorazm viloyati hududidan 5 kilometr masofada joylashgan chekka maktabga har hafta qatnab, ingliz tili fani o‘qituvchisi sifatida ish boshladim. Maktabda ingliz tili o‘qituvchisi yo‘q ekan.

Mana, ikki yildan buyon o‘quvchilarim ingliz tili fanidan ilk yutuqlarga erishmoqda. Ular fan olimpiadalarida g‘olib bo‘ldi, til sertifikatlarini qo‘lga kiritdi. Ishonamanki, Xudo xohlasa, o‘quvchilarim orasidan Garvard talabalari ham yetishib chiqadi. O‘quvchilarga bilim berish barobarida ko‘plab loyihalarni amalga oshiryapman. Jumladan, olis hudud qizlari uchun mentorlik loyihasini ishlab chiqdim.

Ba’zilar “Billuraning “tanka”si kuchli bo‘lsa kerak”, deb o‘ylaydi. Hatto yuzimga aytganlar ham bo‘lgan. Otam novvoy, onam o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. Ular dunyo yig‘madi, mening o‘qishim uchun, bugungi ibora bilan aytganda, investitsiya kiritdi. Oila qurganimdan so‘ng, turmush o‘rtog‘imning qo‘llab-quvvatlashi tufayli yangi marralarni zabt eta boshladim.

Xorijda o‘qishim uchun menga mana shu el-yurt “tankalik” qildi. Men Vatan va xalq oldidagi qarzimni uzishga harakat qildim shu choqqacha. Shunga qaramay, tarixiy muloqot yakunida muhtaram Prezidentimiz tomonidan kamtarona mehnatlarim yuksak e’tirof etilib, menga elektromobil sovg‘a qilindi. Endi uzog‘im yaqin bo‘ladi. Tejalgan vaqtimni o‘z ustimda ishlashga, berilgan va’dalar ustidan chiqishga, o‘quvchilarim bilan ko‘proq ishlashga sarflashni niyat qilib qo‘ydim.

Bayram shukuhi kezib yurgan shu kunlarda respublikamizdagi barcha hamkasblarimni “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” bilan chin qalbidan tabriklayman!

Zarnigor IBROHIMOVA
yozib oldi.

GURUNG

– Omma parazitlarni zararkunanda mavjudot bilib, tabiat va inson uchun mutlaqo keraksiz deb hisoblaydi. Ammo biologiyada aynan ularni o‘rganuvchi alohida tarmoq mavjud va Siz bu tarmoqning dunyoga tanilgan vakilisiz. Bu sohani tanlashingizga nima turtki bo‘lgan?

– Parazitologiya – odamlarda, hayvonlar va o‘simliklarda parazitlik qiluvchi, ya’ni tekinox‘lik bilan kun kechiruvchi organizmlarni o‘rganadigan fan. Parazitlar keng tarqalganligi bois, unga qiziqish va o‘rganish dunyo bo‘ylab rivojlangan. Ammo ilmiy faoliyatim avvalida bu sohani tanlash masalasi bo‘lmagan.

1959-yili Samarqand qishloq xo‘jaligi institutini bitirib, O‘zbekiston Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida ish boshladim. 1961-yili Moskvadagi Butunittifoq gelmintologiya instituti aspiranturasiga o‘qishga kirdim. Yetti o‘ringa mo‘ljallangan tanlovda qatnashib, 37 kishi orasidan qabul qilinganman. Bu sohani tanlashimga shunday voqea sabab bo‘lgan:



tayyorlangan, tashilgan, saqlangan oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, og‘iz va burunga tushadigan chang orqali ham odam organizmida o‘rnashishi mumkin.

ilmining barcha tarmoqlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan bir narsani aytib o‘tmochiman. “Hayvonlar shistosomoz”i nomli kitobimiz hozirgi

FAN MILLAT TANLAMAYDI

Akademik Jaloliddin AZIMOV bilan suhbat

o‘qishni bitirish arafasidan, davlat imtihonlaridan birida og‘zaki javob berayotgan vaqtim professor Nikolay Vasilyev: “Siz ilmiy bilimlarni o‘rganishingiz kerak, sizni kafedrada qoldirmoqchiman”, deya taklif bildirdi. Oilam bilan maslahatlashgan holda, amaliy tajriba orttirishga qaror qildim. Tez orada Janubiy O‘zbekiston qo‘ylarida mavjud bo‘lgan parazitlarga bag‘ishlangan nomzodlik ishimni tugatdim va 25 yoshimda dissertatsiya yoqlab, Samarqandga qaytdim. 1969-yili O‘zFA Zoologiya va parazitologiya institutiga katta ilmiy xodim bo‘lib ishga kelganman va hozirgacha shu yerdaman.

Bir kitobda o‘qigandim, ilon-chayonlarni o‘rganayotgan odam oxir-oqibat shu gazandalarga ham mehr qo‘yib qolar ekan. Bu nimadan? Sirtidan qaraganda g‘ayritabiyy yoki keraksiz bo‘lib ko‘ringan parazitologiya sohasi ichida doim ish qaynaydi, buning inson salomatligi, oziq-ovqat zanjiri uzviyligida o‘z o‘rni bor. Parazitlar kasalliklar juda ko‘p va ular hayvonlarning mahsuldorligini pasaytiradi, hatto o‘limga olib keladi. Shuning uchun birinchi navbatda tashxis masalasini hal qilishimiz kerak.

Odamlar va hayvonlarning deyarli barcha organlarida parazitlar mavjud: nerv sistemasi qon tomirlariga qadar. Ishimizning asosiy mohiyati ana shu parazitlarni o‘rganishdan iborat. O‘tgan vaqt mobaynida O‘zbekistondagi xonaki va yovvoyi hayvonlarda uchrashi mumkin bo‘lgan ikki mingdan ortiq parazit turi aniqlangan. Ular keltirib chiqaradigan kasalliklar Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) hamda Butunjahon hayvonlar salomatligi tashkiloti dasturlari asosida o‘rganiladi.

Tadqiqotlarimiz natijalari bugungi kunda butun jahonga ma’lum. Demak, biz faqat O‘zbekiston uchun emas, jahon fan rivoji uchun xizmat qilayapmiz. Fan millat tanlamaydi.

– Domla, endi bevosita kundalik turmushda ko‘p duch keladigan masalaga to‘xtalmoqchiman. Bugun gelmintoz kasalliklarining keng tarqalishi nimalarga bog‘liq va ularning organizmga zararli ta’siri qanday?

– JSST ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda parazitlar infeksiyalardan aziyat chekkanlar soni 4,5 milliardga yetgan. Kasallik ko‘payishining asosiy omillari: issiq iqlim, gigiyena darajasining pastligi, ichimlik suvi tanqisligi.

Bugungi kunda bolalar organizmida xalq tilida “gijja”, ilmiy nomi esa gelmint bo‘lgan chuvalchanglar orqali yuqadigan kasalliklar tobora ko‘payib bormoqda. Parazitlarning yuqish usullari ularning turiga qarab farqlanadi. Masalan, askaridalar ko‘pincha qo‘lini yaxshi yuvmaydigan bolalarda uchraydi. Ostritsalar esa sanitariga qoidalariga rioya etilmay

Gijjalarning turi, soni va qaysi organda parazitlik qilishiga qarab kasallik turlicha kechadi. Parazitlar bilan zararlangan bemorda vazn kamayishi, qorinda og‘riq, ko‘ngil aynishi, ich ketishi, bosh aylanishi yoki jizzakilik kuzatiladi. Ayrim hollarda ichakdagi gijjalar ich qotishi yoki qayt qilishga sabab bo‘ladi, jigarda joylashsa – badan va ko‘z oqi sarg‘ayadi, shishlar paydo bo‘ladi, terida dog‘lar ko‘rinishi mumkin. Bundan tashqari, umumiy oqibatlar ham sezilarli: odamning mehnat qobiliyati pasayadi, bolalarda rivojlanish orqada qoladi, yaxshi o‘smaydi, xotira susayadi, uyqu notinch kechadi.

Parazit ko‘p hujayrali organizm bo‘lib, bir millimetrdan 8 metrgacha yoki undan ham kattaroq bo‘lishi mumkin. Ayrim bemorlarda 10 metrgacha bo‘lgan parazitlar aniqlangan.

Masalan, Qoraqalpog‘istonda “Shistosomoz” kasalligi bor, hayvonlarda uchraydi. Bu kasallik oqibatida juda ko‘p qoramol va otlar nobud bo‘lgan. Shu turni boshidan oxirigacha, ya’ni tuxumdan chiqishidan o‘zi tuxum qo‘yishgacha bo‘lgan jarayonni o‘rganganman. Shu mavzuda doktorlik ishini yoqlaganman. Izlanishlarimiz samarasi o‘laroq, Qoraqalpog‘iston va Xorazm atrofiga keng tarqalgan kasallik bartaraf etildi, milliardlab pullar tejaldi. Shu bilan birga, hayvonlar sog‘lig‘ini saqlab, iste’mol uchun toza mahsulot olishga ham erishildi.

Shunday kasalliklar borki, aslida hayvonlarda uchraydi, lekin odamlar ham bundan zararlanadi. Masalan, exinokokkoz kasalligi ikkita “xo‘jayin” o‘rtasida rivojlanadi. Asosiy “xo‘jayin”lar: itlar va itsimonlardir. Hayvon va odamlarda uning lichinkali fazasi rivojlanadi. Hayvonlardagi exinokokkozni diagnostika qilishmaydi, uy hayvonlari qushxonada so‘yilganda ko‘rishadi va ro‘yxatga olib qo‘yishadi. U no‘xatdek kichkina pufakchalar shaklida bo‘ladi. Bu pufakchalar kun sayin kattarib boradi. Jigar yoki buyrak to‘qimalarini yemiradi va o‘zi o‘sa boshlaydi.

Odamlarda uchrovchi turi jiddiy kasallik keltirib chiqaradi. Unga chalingan odamni faqat jarrohlik yo‘li bilan davolash mumkin. Uni davolash jarrohning mahoratiga bog‘liq. Bu kasallikka qarshi dori-darmon dunyo bo‘yicha hali ishlab chiqarilgani yo‘q.

– Ilmning maqsadi, albatta, davlat va xalqqa foyda keltirishdan iborat. Bu borada yurtimizda zoologiya sohasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

– O‘zim misolimda aytadigan bo‘lsam, shogirdlarim bilan birgalikda 50 dan ziyod monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanma yozganmiz. Bular respublikamizning oliy, o‘rta ta’lim yo‘nalishlarida va fan sohasida o‘z o‘rniga ega. Fan bo‘yicha yozgan monografiyalarimiz parazitologiya

kunda Angliyada ingliz tiliga tarjima qilinib, yaqin orada darslik sifatida qo‘llaniladi.

Bugunga qadar 1200 dan ortiq ilmiy maqolalarimiz chop etilgan, shundan 40 foizi xorijiy jurnallarda bosilgan. Tadqiqotlarimiz natijasida, biz yaratgan tizim xorijda “Azimov sistemasi” nomi bilan tanilgan.

Bugungi kunda laboratoriyamizdagi ishlarning samarasi o‘laroq, yigirma-dan ortiq grantga ega bo‘ldik. Mana shu grantlar evaziga laboratoriya zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta’minlandi. Bu boradagi natijalarimiz kutganimizdan yuqori.

Bu ishlar o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi. Fanlar akademiyasi tizimida botanika, zoologiya, mikrobiologiya institutlari va shunga o‘xshash bir nechta institutlar mavjud. Ularning vazifasi, birinchi navbatda bioxilma-xillikni o‘rganish, qolaversa, hozirgacha yetib kelgan turlarini saqlab qolish, sonini ko‘paytirish, mahsuldorligini oshirish va xalqimizni toza ekologik mahsulot bilan ta’minlashdir. Bu borada men yuqorida sanab o‘tgan institutlarning har biri o‘z yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Bu institut va universitet kafedralarining aksariyatida shogirdlarim faoliyat yuritayotganidan faxrlanaman.

Bugun yurtimizda zoologiya sohasida katta maktab yaratilgan. Yuzga yaqin yuqori malakali fan nomzodlari, falsafa doktorlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Sohada fan doktorlari 40 dan ortiq va bu natija boshqa yo‘nalishlarda kuzatilmagan. Hayvonlarni parazitlar kasalliklardan saqlash maqsadida ham fundamental, ham amaliy va innovatsion tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon yildan yilga rivojlanib boraveradi. O‘zbekistonda buning uchun jahon andozalariga mos sarhoit yaratilmoqda.

– Parazitlarni o‘rganishning ekologik barqarorlikka qanday foydasi bor? Kelgusida O‘zbekistonda parazitologiya fanining rivojini qanday tasavvur qilasiz?

– Parazitologiyani nafaqat veterinariya yoki tibbiyot, balki ekologik xavfsizlik kontekstida ham o‘rganish muhim. Chunki ayrim parazitlar ekinlarni nobud qilib, hosildorlikni keskin kamaytirishi mumkin. Bu boradagi ilmiy izlanishlarimiz ekologik monitoring va biologik resurslarni asrash siyosatiga xizmat qiladi.

Asosiy maqsadimiz ilmiy tafakkurni yuksaltirish, fundamental tadqiqotlarni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Hamkorlik bo‘lsa, fan tez rivojlanadi. Shuningdek, ekologik savodxonlikni oshirish, biologik tafakkurni o‘stirish orqali aholining ham sog‘lig‘i, ham turmush sifati yaxshilanadi.

Suhbatdosh:
Vasila HABIBULLAYEVA



ABDULLA QAHHOR TAVALLUDINING 118 YILLIGI

Abdulla QAHHOR

Oy to‘lin bo‘lganda shunday oqarsa kerak...



Ibrohim G‘AFUROV,
O‘zbekiston Qahramoni

Ha, oy to‘lin bo‘lganda shunday oqarsa kerak... Men barcha mo‘ylari bunchalar oppoq oqarib ketgan odamni hech ko‘rmagan edim. Hatto qoshlari, kipriklari ham oppoq edi. Qora – kuch, oq – aql deb shuni aytisalar kerak.

1963-yil edi, shekilli, Navoiy kutubxonasi qarshisidagi uyda Abdulla Qahhorning yoshlar bilan uchrashuvi bo‘ldi. Abdulla aka: “Avval yoshlar gapirsin, yoshlar”, dedilar. Biroz payt hech kim so‘zlagani jur‘at qilmadi. So‘ng o‘rtaga o‘ng‘aysizlik cho‘ka boshladi. Yuragim taka-puka bo‘lib men o‘rnimdan turdim... O‘sha kunning o‘zidayoq nima deganlarim esimdan ko‘tarilgan... Abdulla aka o‘zini sira ham katta olmay yoki begonasiramay kulimsirab o‘tirardilar. U kishining hali g‘o‘r, hech narsasi ko‘rinmagan talaba yoshlar ichida xuddi shularning biriday bo‘lib o‘tirishi meni hayratga soldi. Ko‘nglimizga yaqinlik va muhabbat uchqunlari tushdi. Chamasi, adabiy tanqidchilik bilan yozuvchi o‘rtasidagi hamkorlik haqida so‘zladim. Merimening bir hikoyasida eri to‘lg‘oq tutayotgan xotini yonida yotib, u bilan barobar va hatto undan ming marotaba ko‘proq to‘lg‘oq azoblarini kechirishi, shu bilan go‘yo xotinini bu azoblarga giriftor qilganligi gunohini yuvishi, uning azobini qanday bo‘lmasin yengillatishga urinishi haqida aytdim. Adabiy tanqidchi ham yozuvchining to‘lg‘oq azoblarini o‘z boshidan kechirmaguncha, uning asari ichiga chuqur kirolmasligi ravshan, dedim. Abdulla aka kulib yubordilar. So‘ng o‘z ijod tajribalari, yoshlarga maslahatlarini o‘rtolashdilar va bu to‘lg‘oq azobiga ham to‘xtalib o‘tdilar. Abdulla akani yaqindan birinchi ko‘rishim shu edi.

So‘ng shu yilning iyul oyi boshlarida Do‘rmonga chiqdim. Unda aziz arg‘uvonning hali bitta ham shoxi qurimagani edi. Bog‘ g‘oyatda sokin va jimjit bo‘lar ekan... Bir necha kun mobaynida Abdulla akani har kuni ko‘rishga, so‘zlarini eshitishga muyassar bo‘ldim.

Abdulla akaning hamma gaplari tayyor hikoya edi. U kishining qanday gapirishlari bilan qanday hikoya yozishlari, to‘g‘ririog‘i, hikoya qilish maneralari o‘rtasida unchalar tafovut yo‘q edi, shekilli. Juda osuda, ohista, zo‘r ishonch bilan yurakdan so‘zlar edilar. Hikoyalarini o‘qiganimda doim Abdulla akaning ovozi qulog‘imda jaranglab turadi. Bu osudalik tagida vulqonlar yashirib yotadi. To‘lin oy tunlari ko‘hna olamga shunday ohista hikoya aytadi, chamasi. Uning hikoyasida zamin-u ziroat, maxluq-u mavjudotga ona murabbiyligi bor.

Abdulla Qahhorning prozasi odamni ruhan tozartiradigan proza. To‘lin oy kabi tinmay ertaklar so‘zlaydi.

Bizning ayni bolaligimiz qattol urush paytlariga to‘g‘ri keldi. Kitoblarga tashna edik. Lekin nima o‘qishni bilmasdik. Biz o‘qiydigan yoshlarbop kitoblari juda kam edi. Abdulla akaning kichkina, yupqagina muqovalarda chiqqan “Yillar”, “Tomoshabog‘”, “Asror bobo”, “Ko‘k konvert” degan hikoyalarini o‘qidik. Urushdan keyingi yillarda sal esimizni taniganda “Qo‘shchinor”ni, universitetning ikkinchi kursida o‘qiyotganda esa “Sarob”ning yigirma yildan so‘ng chiqqan yangi nashrini o‘qidik. “Sarob”ni ikkinchi kurs studentlari o‘zimizcha o‘qib muhokama qilganmiz...

So‘ng oltmishinchi yillarning o‘rtalarida Abdulla akaning olti tomlik asarlari chiqadigan bo‘ldi. O‘shanda klassik adabiyot bo‘limining mudiri bo‘lib ishlardim. Adiblarimizning ko‘p jildlik kitoblarini chiqarish yo‘lga qo‘yila boshlagan edi. Saodatli kunlarning birida Abdulla aka Kibriyo opa bilan birgalikda katta papkada olti tomlikning birinchi tomini olib keldilar. Kibriyo opa birinchi tomga Abdulla akangiz ko‘p narsalarini kiritishni istamayapti, ko‘p tomlik asarlar yozuvchining eng mukammal, badiiy yetuk asarlaridan tuzilishi kerak, bo‘lmasa ko‘p tomlik bo‘lmaydi, deb aytaptilar, deb qoldilar. Abdulla aka birinchi tomga suratlar berishga ham rozi bo‘lmadilar. Tomning muqovasiga Abdulla akaning dastxatlarini yozdirdib oldik. Ozod Sharafiddinov hayajonga to‘la yorqin so‘zboshi yozdi. Abdulla aka olti tomlikning juda chiroyli nashr etilgan shu birinchi tominigina ko‘rib qoldilar. Qolgan tomlar, garchi, u kishi o‘zlari tomonidan bevosita ko‘rilgan va tayyorlangan bo‘lsa-da, lekin vafotlaridan so‘ng chiqdi va tugallandi. Hurmatli Kibriyo Qahhorova ularni tayyorlashda qattiq jonbozlik ko‘rsatdi.

1968-yil aprel oyining boshlari edi. Erkin Vohidov: “Abdulla aka betob yotgan emishlar, ko‘rib kelaylik”, dedilar. Ancha fursat so‘zlashib o‘tirdik. Vrach ukol qilib ketdi. Abdulla akalar ertaga davolangani Moskvaga ketishayotgan ekan. Shu kuni Abdulla akani ko‘rgani Nosir Fozilov kelgan edi. Ravil Albekov ham bor edi. U bizni birga suratga oldi. O‘sha surat qimmatli yodgor bo‘lib saqlanadi. Nosir aka bu suratni Abdulla akaning so‘nggi surati deb yuradi. So‘ng 1968-yil mayning oxirida hammani og‘ir larzaga solgan sham xabar keldi... Abdulla Qahhor hamma tiriklarga hamroh bo‘lib qoldi.

To‘y abadiy hayot tantanasidir. To‘yda ikki yosh ahd-paymon qilib bir-biriga qo‘l beradi, murod-maqsadiga yetadigina emas, o‘tgan ajdodimiz bilan kelajak avlodimizni bir-biriga bog‘laydigan oltin halqa, go‘zal va xushaxloq kishilarni yetishtiradigan tarbiya o‘chog‘i vujudga keladi. Shuning uchun to‘y nihoyatda ulug‘vor, nihoyatda go‘zal marosim bo‘lishi kerak.

Hozir shahar va qishloqlarimizda bo‘layotgan to‘ylarga razm solsangiz, yosh-qari hamma shunga intilayotganini payqaysiz, lekin ko‘p odamlar ulug‘vorlikka to‘yni cheksiz-chegarasiz katta qilish, go‘zallikka “bir umr yiqqanini to‘kib tashlash” bilan erishmoqchi bo‘ladi.

Menimcha, to‘yni katta qilishga urinish qadimgi boylarga ko‘r-ko‘rona ergashishdir.

Qadimgi boylar to‘yni mumkin qadar katta qilishar edi. Lekin boyning to‘yni katta qilishdan, bir hafta, o‘n kun va hatto bir oy to‘y berishdan maqsadi, shubhasiz, tekin tomoq ulashish emas, obro‘ o‘rttirish, chunki pul sochib o‘rttiradigan obro‘ydan yana pul yasash mumkin edi. Modomiki shundoq ekan, hozirgi zamonda pul sochishning ma‘nosi bormi? Bu zamonda obro‘yning birdan bir manbayi – mehnat, obro‘ esa pul yasash quroli emas, xalqning hurmatiga sazovor bo‘lishdir. Demak, obro‘ni pul sochib topish mumkin emas, bunga urinish xalqning o‘rinli shubha va nafratini qo‘zg‘atadi, xolos.

To‘yni qimmatga tushiradigan rasmlardan biri, uning ikki joyda – ham kuyovning, ham kelinning uyida bo‘lishi, har ikkala to‘yning yana “to‘ycha”larga bo‘linishidir. Har ikkala quda ham “orzu-havas ko‘rish”, “qudadan kam emasligini” ko‘rsatish, falonchini qoyil qoldirish, allakimlardan o‘ch olish va hokazo, deya bor-yo‘g‘ini to‘kadi, bundan tashqari, bolasini qarzdor-abgor qiladi. Ko‘pgina yoshlar “ota-ona roziligi” deb, o‘zlari istamagan holda shu ishlarining boshida turishadi. Holbuki, “ota-ona roziligi”da ham rozilik bor, bularning to‘g‘ri keladiganiga ko‘nib, bid‘atlarga qarshi bosh ko‘tarish zarur...

Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o‘tin yorishga sarf qilish kerak emas.

Agar yozuvchining axloq kodeksi tuziladigan bo‘lsa, men halollik bilan shijoatni birinchi modda qilib qo‘yar edim, chunki yozuvchining boshqa hamma xislatlari uning qay darajada halol, naqadar shijoatli zehninga bog‘liqdir.

Yaxshi yozolmaganligini kechirish mumkin, lekin yaxshi yozishni istamaganingni kechirish mumkin emas.

Adabiy asar yozish uchun, hech shubhasiz, talant kerak. Lekin yozilgan narsani o‘chirish, kitobxonga zarur gaplarnigina qoldirish uchun talantning o‘zigina kifoya qilmaydi, insof ham kerak.

Boshqa ishga yaramay, adabiyotda tanqidchilik qilib kun ko‘rib yurgan tanqidchi, qo‘rqoq qorovulday har sharpadan cho‘chib, shaqildiq chalaveradi.

Gurjistonda madaniyat tarixiga oid bo‘lsa, o‘lgan otning taqasini ham baxmalga qadab osib qo‘yishar ekan.

Bu odam yozuvchilik mehnatini faqat yozishdan iborat, deb o‘ylaydi.

Kattalar uchun yozilgan kitobda yo‘l qo‘yilgan xatoni tuzatish mumkin, lekin bolalar uchun yozilgan kitobda ketgan xatoni tuzatib bo‘lmaydi, bu xatodan bola ogohlantirilsa, xato uning zehninga chuqurroq o‘rnashadi.

Bolalar uchun kitob yozadigan kishi g‘oyat usta san‘atkor, katta tajribali pedagog, tilning zarshunos bo‘lmog‘i kerak.

Hammadan bir ayb topib o‘tirib yuborsa-yu, yonib ketgan uyning mo‘risiday bo‘lib adabiyotda bitta o‘zi so‘ppayib qolsa.

Don Kixotning bo‘yi, bo‘yni, yuzi, burni – hammasi uzun, faqat aqli qisqa, xolos.

Mening bir qarindoshim bor, yozuvchi bo‘lish uchun ilmi ham, layoqati ham bo‘lmagani holda, yozuvchilikka havas qiladi; ilmi borligini, boshqa odamlarga qaraganda adabiyotga yaqin ekanini ko‘rsatish uchun hamma yerda “P” o‘rniga “F” ishlatadi.

Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib

TO‘YLAR MUBORAK...

O‘g‘lining to‘yiga yetti yarim ming so‘m sarf qilgan 69 yashar bir cholni ko‘rdim. Chol to‘yga atab yostiqa pul tiqib yurgan ekan, to‘yga yaqin o‘g‘lining qo‘lidagi pullarni ham qoqishtirib olipti, 200 kilo gurunch damlash bilan to‘yni boshlab yuboribdi. Quda tomon ham, albatta, “bir chol”dan qolishmaslikka harakat qilganligi turgan gap. To‘y o‘tgan hovlini, yangi oilaning ro‘zg‘orini ko‘rdim. Solinayotgan ikki uy, bir dahlizning usti yopilmay qolibdi. Chol-kampir o‘zlari turgan uyni yoshlarga bo‘shatib berib, hozirgacha tokning tagida yotib yurishar ekan.

Yangi oilani mana shunaqa ortiqcha chiqimdor qilmaslik, to‘yda isrofgarchilik bo‘lmasligi uchun to‘y yo qizning, yo kuyovning uyida, yo bo‘lmasa klubdami, biron bog‘dami yoki maxsus to‘yxonadami o‘tkazilsa, nima qilar ekan? Xizmat qilishni ko‘ngliga tugib yurgan qavm-qarindoshlar, yor-oshnalar shu yerda xizmat qilishsin. Har ikkala tomondan aytilgan odamlar tabrik va sovg‘a-salom bilan shu yerga kelishsin. (O‘rni kelganda shuni aytib qo‘yaylik: to‘yga hol-baqudrat to‘yona bilan kelish yaxshi, bu narsalar kelin bilan kuyovga to‘yni, jamoatchilikni uzoq vaqt eslatib turadi, lekin dasturxon ko‘tarib kelib, dasturxon olib ketishdek chirib ketgan odatga barham berish kerak).

Yaxshi o‘tgan to‘y haqida mahalliy gazetalar axborot, qolaversa taassurotlar, lavhalar bersin. To‘y mana shundoq ulug‘lansa, to‘y egalari mansub bo‘lgan kollektiv va butun jamoatchilik diqqat markaziga qo‘yilsa, yigit bilan qiz shundoq to‘yga munosib bo‘lishga harakat qiladi, to‘y ularning dilida va ongida chuqur iz qoldirib, oilaning mustahkam bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu birovning xayoli emas, balki hayotning talabidir, chunki ko‘p joylarda shunga intilish bor...

Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, hech bir eski urf-odat shovqinsiz, yig‘isiz taslim bo‘lgan emas, hech bir yangilik daf‘atan quchoq ochib qarshi olingani yo‘q... To‘yni qimmatga tushiradigan, ko‘pincha uning xunini chiqaradigan bid‘atlardan yana biri ichkilikdir. Men shaharda o‘tgan bir qancha to‘ylarning sarf-xarajatiga sarhisob soldim. Bu to‘ylarda bo‘lgan sarf-

xarajatlarning 28–53 protsentini ichkilik tashkil qiladi...

Shaharlik bir o‘qituvchi “Ichkilik to‘ydangina emas, umuman hayotimizdan quvib chiqarilsa juda olijanob ish bo‘lar edi, chunki o‘g‘ri mol o‘g‘irlasa, ichkilik jon o‘g‘irlaydi, jamiyat a‘zosini safdan chiqarib tashlaydi”, dedi. Bu gapga safdan chiqib qolgan piyanistagina e‘tiroz bildirishi mumkin.

...Men ichkilik oralagan uchta ta‘ziyada bo‘ldim. Marhumni qabrga qo‘yib kelgan odamlar qadahlarni to‘ldirib, uning salomatligiga-ku emas, “yorqin xotirasiga” ichishmoqda edi. Shu ta‘ziyalardan birida birov ashula aytib yubordi. Hamma xijolat. Hushyor odamlar: “Marhum shu ashulani yaxshi ko‘rar edi”, deb odamlarni xijolatdan chiqarishga harakat qilishdi. Ba‘zi odamlar: “To‘yda ichkilik bo‘lsin-u, me‘yorida bo‘lsin”, deyishadi. Xo‘sh, bu “me‘yor”ni kim belgilab beradi? Ta‘ziyada ashula aytib yuborgan mastmi yo araqu‘rni o‘g‘ridan battar ko‘radigan boyagi o‘qituvchimi?..

Nasha chekish ayb, ko‘knor ichish uyat. Nima uchun ichkilik ichish ayb-uyat emas, nima uchun to‘yni ayb-uyatlikdan qolishmaydigan ichkilik bilan bezaymiz? Nasha bangilikka, ko‘knor ko‘knorilikka eltib, kishini odamgarchilikdan chiqaradi deymiz, nima uchun piyanistani odam hisoblaymiz? Ichkilikning, masalan, ko‘knordan nima afzalligi bor? Ko‘knori ko‘knor ichib o‘g‘irlikka tushgani, odam o‘ldirgani ma‘lum emas, lekin piyanistaning qilmagan jinoyati yo‘q-qu! Shumi ichkilikning boshqa bangilardan afzalligi! Ichkilikni hozircha hayotdan butkul quvib chiqarish mumkin emas, chunki hozircha xalq orasida ichuvchilar bor ekan, ichkilik taqiy qilingan kundan boshlab ichuvchilar, ayniqsa tekino‘rlar uyida xum qaynaydi...

Biz bu yerda to‘yni ulug‘vor va chiroyli qilib o‘tkazish, uni ortiqcha chiqimlardan bo‘shatish to‘g‘risida gapirdik. Ortiqcha chiqimlar faqat to‘ydagina emas, undan oldin va keyin o‘tadigan turli “to‘ychalar”da ham bo‘ladi. Biz bu to‘g‘rilarda ham fikr olishib, yangicha to‘yning har jihatdan mukammal va go‘zal shaklini topishimiz kerak.

1963

YOZUVCHI YON DAFTARIDAN



olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi.

Men bu kitobni ne mashaqqat bilan do‘ppimni hidlab-hidlab o‘qidim.

Zuhra dunyoda hech narsaga, hech kimning so‘ziga ishonmas, faqat “sen chiroyli”dan tovushgagina ishonar, lekin bu tovush qayoqdan, kimdan chiqqaniga qaramas edi.

Yozuvchi biron narsa yozish uchun qo‘liga qalam olganida hammadan burun ko‘z oldiga shu narsani o‘qiyotgan o‘quvchini keltirsin, asarning har bir satri ko‘z oldidan o‘tganda uning chehrasida bo‘ladigan o‘zgarishni ko‘rib tursin. Yozuvchi o‘zini kattakon bilimdon, yuksak did egasi bo‘lgan kishi oldida imtihon berayotganday sezs.

His qilmasdan asarni tuzatish dutorni ikki kishi chalganday gap: parda bosgan kishi ham, zarb bergan kishi ham hech narsani his qilolmaydi, bunday mashqdan hech kim lazzat olmaydi.

Men “Anor” degan hikoyani yozganimda boshqorong‘i xotinning holatini shu kunlarda mushohada qilganim yo‘q. Boshqorong‘i xotinning holati mening yon daftarimda bor edi. Buni men bir vaqtlar daftarga shunday qayd qilib qo‘ygani ekanman: “Er xotiniga jannatning ta‘rifini qiladi. Xotinning ko‘ziga hovzikavsar va unda suzib yurgan baliqdan boshqa hech narsa ko‘rinmaydi. Xotin baliqqa boshqorong‘i”.

Chiroyli lof-qofdan xunuk haqiqat yaxshi.

Men adabiyotga qadam qo‘ygandan beri adabiyotga kirib chiqqan odamlarning soni bor-u, sanog‘i yo‘q. Bularning bir qismi yozish-chizishga bo‘lgan havasini talant deb o‘ylagan, shuning uchun adabiyotga yangilish kirgan odamlar-da.

Asar ilhom bilan yozilsa, obrazlar o‘z-o‘zidan gavdalanadi, hatto o‘zining qiladigan ishini, aytadigan gapini yozuvchiga aytib, luqma solib turadi. Ilhom yozuvchini hamma qiyinchiliklardan qutqaradi.

Havas hammada ham bo‘lishi mumkin, lekin havasning o‘zi kishini hech qayoqqa eltmaydi. Men, masalan, tanbur chertib hammani qoyil qilgim keladi, lekin nachoraki, dard bor-u, darmon yo‘q.

Yomon xotin to‘g‘risida yozish, har narsa yozish mumkin. Lekin yozgan vaqtda yozishdan maqsad nima ekanini, onamiz ham, oilamiz ham xotin jinsidan ekanini esimizdan chiqarmasligimiz kerak.

Yozuvchi o‘z ijodiy ishidan hech qachon qanoat hosil qilmaydi, qanoat hosil qilgan kuni, menimcha, yomon qarigan laqma cholg'a aylanadi.

Qorong‘i kechada otilgan mushak ham go‘zal, quyoshga qarab xandon tashlab turgan gul ham go‘zal. Osmonda sochilib ketgan rang-barang olov va oqish izlar

go‘zalligi ko‘zni qamashtirsa ham puch go‘zallik, shuning uchun bebaqodir. Gulning go‘zalligi esa to‘q go‘zallik, chunki uning bag‘rida hayot bor, shuning uchun abadiy go‘zallikdir. G‘uncha guldin ham go‘zalroq, chunki uning bag‘rida ikki hayot – o‘z hayoti va yana gul hayoti bor.

Qadim zamonda “Tabiat bo‘shliqdan qo‘rqadi”, deyishar ekan. Haqiqatan, yaxshi narsa bo‘lmagan joyga yomon narsa suqilib kirib oladi.

Feruz kim o‘zi?

Feruz mashhur lirik shoir, musiqashunos, kompozitor, yaxshi tarjimon, Umarxon singari o‘z zamonasining shoirlarini o‘rda-siga yiqqan, 1873-yilda bosmaxona sotib olib Xorazmda birinchi kitob bostirgan odam. Shu odamni yuz yildan keyin qora kursiga o‘tqazib, sovet qonuni bilan sud qilishdan nima murod hosil bo‘ladi?

Oddiy kamonchi, g‘ijjakchining qo‘lida oddiy yog‘och qutidan alomat sadolar chiqadi.

Uyat faqat insonga xos tuyg‘udir. Hayvon uyat paydo qilolmagani uchun insonga yaqinlasholmaydi, lekin inson uyatni yo‘qotib hayvonga yaqinlashib qolishi mumkin.

Bir donishmand uyatni “vijdonning sirtqi ko‘rinishi” debdi. Demak, uyatsizlik bilan beadablik, beadablik bilan axloqsizlik, axloqsizlik bilan jinoyatkorlik orasida qalin devor yo‘q, bularning har biri vijdotsizlikning turli bosqichidir.

Biz ko‘pincha “yoshlarimizning tarbiyasi buzilayotipti” deymiz, holbuki, buzuq tarbiya osmondan tushayotgani yo‘q.

Har qanday qonunga ham chap berish mumkin, lekin uyatga chap berib bo‘lmaydi, chunki qonun odamdan tashqarida, uyat esa odamning ko‘ksida bo‘ladi.

Urushda vayron bo‘lgan imoratni tiklash oson, lekin mustamlakachilik qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, taqdir hukmiga topshirgan odamni bu falokatdan xalos qilish qiyinroq!

Yozuvchi birinchi qadamini ilhom bilan qo‘yadi, ikkinchi qadamini qo‘ygani esa hali ilhom kelgani yo‘q, ilhomsiz qadam qo‘yilganda tizza qaltiraydi.

Ikkinchi kitob hamma yoshlar uchun jiddiy sinovdir.



Boshlanishi 1-sahifada.

Didimiz qachon bu qadar o'tmaslash-di, qachondan buyon pardasiz sahnalarga mahliyo bo'lib qoldik? Ayrimlar aybni yoshlarga to'nkashga urinadi. Ammo, allaqachon soqoliga oq tushgan kishilar ham davralarda: "Kecha anov kinoni ko'rdim. Kelin degani rosa ketvorgan ekan, qaynota bechoraning hushini olibdi. Shu yerini artistlar juda zo'r o'ynashgan-da", deb gap sotib o'tirganiga guvoh bo'lganman... Shu bois, kinochilar: "Odamlar ko'ryapti-kul" deb o'zini oqlaydi va bundan battarroq sahnalarni "ijod" qiladi.

"Ommaviy" (aslida "olomon") madaniyat haqida so'z yuritishdan oldin, bir asr ortga – "tariximizning kir va qora zamonlari"ga qaytishga to'g'ri keladi. "Ishtirokiyun" gazetasining 1919-yil 24-oktyabr sonida buyuk adib Abdulla Qodiriyning "Eski shahar teatru havaskorlariga" sarlavhali luqmasi chop qilingan. Adib unda afsuslanib yozadi: *"Ma'lumki, sanoyi nafisa – teatru bizim Toshkand musulmon yoshlari orasinda juda ham yengil bir ish onglashilganlikdan favqulodda bir buzuqlikda davom etmakda bo'lib, ulug'lar maktabi bo'lgan teatru sahnalari allaqanday safsata va noahil kishilar qo'linda bir o'yinchoq bo'lib kelmoqdadir..."*

Ma'lumki, jadid bobolarimiz tarix taqozosi bilan mustamlaka yukini yelkalaridan vaqtincha uloqtirgan davr – o'tgan asming o'ninchi yillari oxiri va yigirmanchi yillarida omma zehniyatini yangicha qarashlar va ozodlik nafasi bilan yuksaltirish uchun maorif tizimini to'la isloh qilish bilan birga, teatrnı rivojlantirmoqqa ham jiddiy kirishganlar. Hali kino ommalashmagan zamonda oddiy xalq orasiga kirib borish, ularni qadim milliy qadriyatlar va yangi davr talablari asosida tarbiyalashda teatrnıg o'rnı beqiyos bo'lgan. Shu sababli, buyuk jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy ilk o'zbek sahna asarini yaratgani bejiz emas.


Qodiriy murojaat qilayotgan Eski shahar teatru havaskorlari ozodlik epkinidan ruhlaniib, turli firqa va yo'nalishlarga og'ib ketgan kishilar edi. Bu davrda dekadentchilik, modernizm, g'oyasizlik, o'ngchilar va so'lichilar kabi turli-tuman oqimlar o'z g'oyalari ni ommaga singdirish uchun teatrdan unumli foydalanishga intilgan. Ongi to'la shakllanmagan, davr talotumlarini anglab yetmagan havaskorlar guruhlari o'sha firqa, guruh va yo'nalishlar ta'siriga tushib, teatrlarda bema'ni va hatto uyatsiz sahnalarni namoyish qilishga berilib ketgan. Qizig'i, ularning tomoshabinlari ham ko'pchilik bo'lganki, shaharma-shahar yurib, tomosha ko'rsatib pul ishlashgan, hatto mashhurlikka erishgan.

Jadidlar bunga befarq qaramasdan, matbuotda sahna asarlarining yaroq-sizligi, tarix va davrning qiyofasi buzib ko'rsatilayotgani, milliy qadriyatlarga zid holatlar tomoshabin ongiga singdirilayotgani haqida ko'plab tanqidiy maqolalar e'lon qilishgan. Bu maqolalarning aksarida teatr nomi, asar muallifi, uni sahnalashtirgan shaxslar ism-shariflari keltirilgan, ya'ni tanqid tig'i aniq mo'ljalga yo'naltirilgan. Bu holatlarga barham berish uchun nimalar qilish kerakligi ham ko'rsatib o'tilgan. Misol uchun buyuk adib

JAHON AYVONIDA

INNOVATSION DAVLATLAR REYTINGI
O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng innovatsion davlat deb topildi. Bu haqda BMTning Global innovatsion indeksida e'lon qilindi.

2025-yilgi reytingda dunyo yetakchisi Shveysariya bo'lib, u 2011-yildan beri



ro'yxatda liderlik qilmoqda. 2-o'rinda Shvetsiya, 3-o'rinda esa AQSH joylashgan. Xitoy 10-o'rinni egallab, Germaniyani 11-o'ringa siqib chiqargan. O'ntalikka Janubiy Koreya, Singapur, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Niderlandiya va Daniya ham kirgan.

O'zbekiston 139 ta davlat orasida 79-o'rinni qayd etgan. Qozog'iston esa 81-o'rinni egallagan.

FIR'AVNNING BILAGUZUGI YO'QOLDI
Misr Milliy muzeyining restavratsiya bo'limida fir'avn Amenemopetga tegishli bo'lgan bilaguzuk yo'qoldi, demoqda Misr qadimiy yodgorliklar vazirligi ma'murlari.

Uch ming yillik ziynat lazuriti aralashgan sof oltindan iborat bo'lib, taxminan 600 gramm og'irlikda bo'lgan. Buyum yo'qolganini inventarizatsiya paytida aniqlashgan.

QODIRIYDAN QOLG'ON QAYG'U



yuqoridagi luqmasida quyidagilarni ko'rsatib beradi:

"Mundan so'ng ham shunday holni davom etmovi va o'zlarimizning ibratgohi bo'lgan sahnalarning o'z darajasida borishi uchun Eski Toshkand sinfiy ittifoqlar sho'rosi musulmon teatru havaskorlari (lyubitellari'g'a) shu tubanda ko'rsatilajak qoidalarga rioya qilub, teatru quyularig'a takliflar aytadir:

- 1. Sahnaga qo'yiladig'an asarlarni o'ynal-masdan ilgari Eski Toshkand "Artistlar soyuzi" ila shul asar haqinda mutolaa yuritilib, so'ng sahnaga qo'yulsin.*
- 2. Havaskorlarning o'z rollarini yaxshi onglab o'ynovlari uchun "Artistlar soyuzi"dan repetitsiya vaqtinda bir kishi chaqirulsin.*
- 3. O'ynaladig'ran bir asar haqinda "Artistlar soyuzi" ila kelisha olmagan taqdirda Eski shahar sinfiy ittifoqlar sho'rosiga murojaat etilsin.*



“ Biz ko‘pincha san‘atga mutlaqo uquvi yo‘q – iste‘dodsiz kishilar haqida gapirishga imyanamiz. Ekranda biron maza-matrasiz film paydo bo‘lar ekan, uning paydo bo‘lish sabablari haqida dalillar topamiz, bu xususda qizg‘in munozaralar qilamiz, lekin bunday filmlarni yaratgan talantsiz kishilar haqida lom-mim demaymiz.

Sergey BONDARCHUK

vaziri Zohar bu qarorga keskin norozilik bildirib, qarshi bayonot bergan.

UCHAR AVTOMOBILLAR TO'QNASHUVI

Xitoyning Xpeng Aeroht kompaniyasiga tegishli ikkita uchar elektromobil havoda to'qnashdi. Bu haqda "CNN" xabar berdi.

Hodisa Anchun shahrida o'tkazilayotgan aviashou repetitsiyasi vaqtida yuz bergan. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, elektromobillardan biri ikkinchisiga haddan tashqari



yaqinlashgan, oqibatda to'qnashuv yuz bergan. Kompaniya voqea sabablarini o'rganish uchun tekshiruv boshladi. Vertikal qo'nish vaqtida elektromobillardan biri yonib ketgan. "XXI asr samo-yo'l transport hodisasi" deb nomlangan bu voqea davomida hech kim jiddiy jarohat olmagan.

TIKTOK AMERIKALIKLARGA SOTILADI

AQSH va Xitoy TikTok ijtimoiy tarmog'ini Oracle, Andreessen Horowitz va Silver Lakedan tashkil topgan investorlar konsortsiyumiqa sotish bo'yicha kelishib oldi. Bu haqda "Bloomberg" nashri xabar berdi.

Manbaga ko'ra, TikTokga egalik qiluvchi ByteDance kompaniyasining ulushi 20 foizga



tushiriladi. Bu orqali kompaniya AQSHda faoliyat yuritish va milliy xavfsizlik to'g'risidagi qonunga amal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Amerika kompaniyalaridan iborat konsortsiyumi ulushlarni qanday taqsimlashi noma'lum. Biroq AQSHning TikTokdagi ulushi 80 foizdan kam bo'lmaydi.

UNIVERSITET TRAMPNI SUDGA BERDI

Kaliforniya universiteti xodimlari AQSH prezidenti Donald Trampga qarshi jamoaviy sud da'vosini kiritdi. Bu haqda "Los Angeles Times" xabar berdi.

Ular Tramp ma'muriyatini konstitutsiyaviy huquqlarni buzishda va ish o'rinlariga tahdid qilishda ayblamoqda. Da'vo sababi – univer-



Qarang, buyuk jadid bobomiz yoshlarning tarbiya maskani sifatida avvalo maktabni ko'rmoqda. Shu bilan birga, kattalar uchun deyilgan teatrdan haqiqiy hayot aks etishini istayapti.

...Birasilgari teatr qaydarajada ommalashgan bo'lsa, bugun kino shu darajaga erishgan. Telekanallarning ko'pligi, har kuni ekranlar qarshisiga millionlab kishilarni jalb qilishi, bu yuqda turli-tuman xususiy kinostudiya-lar faoliyat yuritayotgani va asosan maishiy mavzulardagi seriallar ishlab chiqarilayotgani (aynan "ishlab chiqariyapti", yaratilmayapti) bizga ham vaziyatga Qodiriy buvami-z nigohi bilan qarash, baholash va kamchiliklariga murosasiz bo'lish majburiyatini yuklamoqda.

O'sha bema'ni, odob-axloq me'yorlarini buzgan, mafkuraviy jihatdan yaroqsiz seriallarni yoshlar ko'proq ko'rishayotgani ham bor gap. Ota-onasi bu ishdan qaytargan taqdirda ham, istaymizmi-yo'qmi, yoshlar o'sha kinolarni ko'rishadi. Negaki, hozirda kinonı biznesga aylantirgan "ijodkorlar" uni ijtimoiy tarmoqlarga yuklashyapti – yetti yoshdan yetmish yoshgacha tirik jon borki, qo'lida telefon.

Bir asr ilgari buyuk Qodiriyning qo'lga qayta va qayta qalam oldirgan mavzu bugun ham aslo eskimagan. Ayniqsa, yurtimizda yaratilgan erkinliklarni suiliste'mol qilayotgan ayrimlar, jadid bobomiz tili bilan ayt-sak "havaskorlar", o'z "ijod"larida haddan oshishni oddiy holat ko'rinishiga olib keldi – bu borada tomoshabin ko'nikmasi shakllanishiga ham ulgurdi. Bunga mas'ullar, qolaversa, barchamizning loqaydligimiz keng yo'l ochdi. Biz faqat ijtimoiy tarmoqlarda bong urish bilan cheklanib qolyapmiz. Vaziyat yanada chigallashmasligi uchun bir asr ilgari amaliyotda bo'lgan, Qodiriy bobo eslatgan va ishongan o'sha "Artistlar soyuzi" kabi nazorat tashkiloti tuzish vaqti kelmadi-mi? Agar bunday tashkilot bor bo'lsa, ularni turtib uyg'otib qo'yish kerakmikan?

Shu paytgacha qatnashish nasib qilmagan bo'lsa ham, yangi kinolar taqdimoti muntazam o'tkazib turilishidan matbuot va ijtimoiy tarmoqlar orqali yaxshi xabardorman. Taqdimotda qatnashgan yozuvchi va jurnalistlarning fikr-mulohazalari orasida yangi yaratilgan kinonıg kamchiliklari to'g'risida jiddiy e'tirozlar ham kuzatiladi. Ammo kino ijodkorlari bu kamchiliklarini qay darajada tuzatishadi, tuzatishadimi – bu yog'i mavhumligicha qoladi. Telekanallarni egallab olgan seriallar taqdimoti haqida biror joyda o'qimadim. Qolaversa, o'ttiz-qirq va undan ko'proq seriyadan tashkil topgan filmlarning taqdimotini kinozallarda o'tkazishning imkoniyati ham yo'q.

Demak, seriallarni ekranga chiqarishdan oldin maxsus hay'at nazoratidan o'tkazish tizimini yaratish va uni qat'iy yo'lga qo'yish vaqti kelgan. Hay'at a'zolarining necha o'nlab soat davom qiladigan seriallarni sinchiklab ko'rishlari, fikr-mulohazalarini erinmasdan yozib, muhokama qilishlari uchun ketadigan vaqtlarini ham inobatga olib, ularni moddiy rag'batlantirish (soatbga bonoror uslubida) tizimini ham yaratish lozim bo'ladi.

Aks holda, Qodiriy bobomizning bir asr ilgari qayg'usini avlodlarga meros sifatida o'tkazib yuborishdan boshqasiga yaramaymiz!


Ro'zimboy HASAN

sitetdan 1,2 milliard dollar to'lov talab qilinishi va ilmiy tadqiqot grantlarining to'xtatilishi.

Xabarga ko'ra, 21 ta kasaba uyushmasi va professor-o'qituvchilar assotsiatsiyasi jami 100 mingdan ortiq universitet xodimlari manfaatini himoya qilish maqsadida Kaliforniya Shimoliy okrugi federal sudiga murojaat qilgan.

SUN'IY INTELLEKT – PARTIYA YETAKCHISI

Yaponiyaning "Qayta tug'ilishga yo'!" siyosiy partiyasining asoschisi so'nggi saylovda muvaffaqiyatsiz natija qayd etganidan so'ng iste'foga chiqdi va uning o'rniga yetakchi sifatida sun'iy intellekt tayinlandi. Bu haqda "The Japan Times" xabar berdi.



Bu yilgi saylovda g'olib chiqqan nomzod, Kioto universitetining 25 yoshli aspiranti Mitsutaka Okumura partiyaning yangi rahbari etib tayinlangan. U o'z vakolatlarini darhol sun'iy intellektga topshirgan va o'zi yangi rahbarning yordamchisi sifatida ishlashini aytgan.

Uning tushuntirishicha, sun'iy intellekt kelajakda partiyaning haqiqiy qarorlarini qabul qilish uchun javobgar bo'ladi.



Boshlanishi 1-sahifada.

Yana qaysidir tarixiy binolardan sport zallari, sex yoki boshqa ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanilgan. Ba'zi yodgorliklar xarob ahvolda turibdi, ular deyarli unutilgan. Ayrim joylar holati yaxshi, lekin turizm yo'nalishlaridan chetda qolgan.

Shu o'rinda viloyatdagi eng qadimiy arxeologik yodgorlik – Yerqo'rg'on haqida to'xtalib o'tish joiz. Vohaning qariyb uch ming yillik tarixini o'zida mujassam etgan Yerqo'rg'on taniqli olim Rustam Sulaymonov tadqiqotlaridan keyin deyarli o'rganilmayotgan manzilga aylandi. Agar biror sayyohni o'sha tomonlarga olib borib, mana, vohamizdagi eng qadimgi shaharlardan birining o'rnini, shu joydan topilgan ishonchli arxeologik manbalar asosida Qarshi shahrining 2700 yilligini nishonlaganmiz, desangiz, hayron qolishi aniq. Yastanib yotgan tepaliklarda arxeologik o'rganishlarni davom ettirish, yangi dalillar topishga ehtiyoj mavjud. Ayni paytda, Yerqo'rg'onni kelajakda yuksak texnologiyalar asosida o'rganish uchun ham o'z tarixiy o'rnida saqlab qolish, fermerlarning dala maydonlariga qo'shilib ketmasligi uchun, avvalo, yodgorlik atrofini aynan hozirgi kunlarda to'lig'icha o'rab olish dolzarb vazifadir.

Xuddi shuningdek, temuriylar sulolasidagi ulug' siymo Saroymulkonim – Bibixonim tavallud topgan maskan Janjirsaroy yodgorligi ham keng ko'lamli o'rganishlarga muhoj. Muborak tumanida joylashgan ushbu yodgorlik markazidagi mahobatli saroy qoldiqlari ochilib, “ochiq osmon ostidagi muzey”ga aylantirilsa, viloyatning turizm salohiyati rivoji uchun katta qadam bo'lar edi.

Ma'lumki, Qarshi shahri qadimiy va boy tarixga ega. Shaharda davlat muhofazasiga olingan 25 ta arxitektura yodgorligi mavjud. Bu yerda qadimdan shaharsozlik rivoj topgani, yirik muhandislik inshootlari, bozorlar, bog'-rog'lar bo'lgani manbalardan ma'lum. Ammo ularning hammasi ham bizgacha yetib kelmagan. Saqlanib qolganlari esa Ko'kgumbaz, Odina jome masjidlari, Bekmir, Qilichbek, Xoja Abdulaziz madrasalari, sardoba, Abu Ubayda ibn Jarroh ziyoratgohi, qadimiy ko'pri, hammom va yana bir nechta madaniy meros obyektlaridir. Albatta, ularning har biri beqiyos tarixiy ahamiyatga ega. Ammo necha-necha asrlar to'fonlarida omon qolib, bizgacha yetib kelgan bu madaniy meros obyektlarining aksariyati bugun achinarli ahvolda kelib qolgan.

Masalan, shaharning Haramjo'y mahallasida joylashgan besh asrlik masjidning tarixiy qismidan birgina xona, uning shift qismi hamda yog'och eshigi saqlanib qolgan, xolos. Ana shu qismlarning o'zidayoq binoning takrorlanmas uslub va noyob arxitektura yechimlarga ega bo'lgani ko'zga tashlanadi. Masjid me'moriy yodgorlik sifatida davlat muhofazasiga olingan bo'lsa-da, bugungi kunda sifati ta'mir, e'tibor va qarovga muhoj. Aks holda, tarixiy obida yaqin yillar ichida yo'qolib ketishi hech gap emas.

Qarshi shahrining Chaqar mahallasida joylashgan Kul masjidi esa XVIII asrda bunyod etilgan. Keyingi yillarda bu tarixiy joy ustaxona vazifasini bajargan. Ko'p yillar davomida e'tiborsiz qolib, o'ta ta'mirlalab holga kelgan masjid binosi bir tomonga og'ib qolgan va atrofdaqilar uchun ham xavfli holatda turibdi.

Sharifboy madrasasi XVIII asrda pishiq g'ishtdan barpo etilgan bo'lib, ikki sotikdan ortiq maydonni egallagan. Hovli sathi juda kichik, to'rt tomonida 12 ta hujra mavjud. O'z davrida bu yerdan ko'plab ziyoli kishilar yetishib chiqqan. Ma'lumotlarga ko'ra, sho'rolar davrida madrasada bir muddat rentgenxona faoliyat yuritgan. Keyin bu joy teri-tanosil kasalliklari bo'yicha shifoxona filialiga aylantirilgan. Yana bir muddat omborxona vazifasini ham o'tagan. Tabiiyki, shu yillar davomida tarixiy bino ta'mirlalab holga kelib qolgan.

Madrasa davlat muhofazasiga olinganida, ko'pchilikda uning ta'mirlanib, me'moriy yodgorlik sifatida asrab-avaylanishi, shahar tarixining uzviy bir bo'lagi sifatida kelajak avlodlarga ham yetib borishiga ishonch uyg'ongan edi. Ammo oradan yillar o'tmoqdiki, bu yerda bino peshtoqiga davlat muhofazasida ekanini anglatuvchi yozuv ilinganidan boshqa ish ko'zga tashlanmadi. Qarovsiz qolgan tarixiy inshoot esa tobora nurab bormoqda.

Bir necha yil ilgari ommaviy axborot vositalarida Haramjo'y va Kul masjidlari 2021-yilgi ta'mirlash dasturiga kiritilgani, Sharifboy madrasasi esa 2022-yil dasturiga kiritilishi haqida e'lon berilgan edi. Afssuski, oradan shuncha vaqt o'tgan bo'lsa-da, bu yodgorliklar sayyohlarni boshlab borsa bo'ladigan manzilga aylanmadi.

Haramjo'y va Chaqar mahallalaridagi ushbu masjidlarda hamda Sharifboy madrasasining qadimiy ko'ri-nishlarini saqlab qolish, ta'mirlash ishlarni amalga oshirish uchun arxeologlar va me'morchilik tarixi sohalari mutaxassislaridan iborat respublika guruhi tashkil etish va bu ishlarni ular ishtirokida amalga oshirish zarur.

Me'morchilikning noyob namunasi bo'lgan Qarshi hammomi Abdullaxon II davrida, 1592–1593-yillarda qurilgan. Mazkur obida tarhi aniq, puxta, to'g'ri to'rtburchak shaklida. Unda bo'yilmasiga beshta, eniga uchta xona joylashgan. Xonalar yirik gumbazli (balandligi 5,6 metr) markaziy zal atrofida uyushgan. Hammom doim issiq bo'lishi uchun yerdan 3 metr pastda qurilgani ham e'tiborga molik. Devorlar suv o'tkazmaydigan qir qorishmasi bilan suvalgan. Yer osti kanallari ham qir qorishmasida pishiq g'ishtdan bunyod etilgan. Hammomda tagxonadan yoqilgan olov tufayli qizitadigan issiq tosh bo'lgan. Bel, suyak og'rig'iga duchor bo'lgan kishilar sharqona tabobat usulida davolanish uchun shu issiq tosh ustiga yotgan va shifo topgan.

Ko'rinib turibdiki, bu tarixiy inshoot o'z davrining yirik me'morlari tomonidan tayyorlangan mukammal tarh asosida, qurilish sohasi ustalari tomonidan

katta mahorat bilan barpo qilingan. Eng muhimi, hammom bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Va, afsuski, bizning davrimizdan nariga o'tadiganga o'xshamayapti. Zamonaviy qurilishlar har tomondan qisib kelgani yetmaganday, qadimiy hammom qarovsiz, e'tibordan chet joyga aylanib qolgan.

Qarshi tumanidagi Xoja Shamsiddin Halvoniy mangu qo'nim topgan manzilgoh ham xarob ahvolda. Bu shaxs Hanafiya ta'limotining ming yillar burun Movarounnahr zaminida keng yoyilishida birinchilardan bo'lib xizmat qilgan. Manbalarga ko'ra, u kishi Saraxsiy, Pazdaviy, Zaranjiy singari mashhur olimlarning ustozidir. Ali Pazdaviy mashhur fiqh olimi Najmiddin Umar Nasafiya, u kishi esa islom fiqhshunosligi namoyandasi, “Hidoya” asari muallifi Burhoniddin Marg'inoniyga ustozlik qilgan. Bu ham Halvoniy ilmiy salohiyati nechog'lik, yuqori bo'lganini tasdiqlaydi. E'tiborlisi, bu yerdagi maqbarada o'zining tuzilish tarhi bo'yicha noyob bo'lgan qadimiy qabr mavjud. Bu qabr qurilishida ishlatilgan mayolikali, o'ta noyob sirlangan qoplamalar Samarqandning Shohizinda majmuasidagi Qusam ibn Abbos qabri qoplamalari bilan tenglasha oladi.



Qarshi tumanidagi Muhammad ibn Ato an-Nasafiy as-Sokabadiyoziy qabri, shuningdek, Ko'chkak mahallasidagi XIII-XIV asrlarda qurilgan to'rt gumbazli tosh masjidga ham e'tibor qaratisa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Shunisi qiziqki, musulmon masjidlari qurilishi qariyb o'n ikki asrdan buyon davom etayotgan va minglab masjidlari qurilgan bo'lsa-da, to'rt gumbazli masjidlarda me'morchilik faqatgina Qashqadaryo, xususan, Qarshi vohasi uchun xosdir. Bu kabi to'rt gumbazli masjidlarda namunalari Qarshi tumanining Kahlak, Potron qishloqlarida, Kasbi tumanining Qatag'on, Pandiron qishloqlarida, Koson shahrida saqlanib qolgan. Lekin Kosondagi XV-XVI asrlarga oid Chorgumbaz masjidi Qarshi shahrining 2700 yillik yubileyi arafasida negadir buzib tashlanib, o'rniga yangi masjid qurilgan. Islom olamida o'xshashi yo'q, o'ziga xos me'moriy xususiyatlarga ega bo'lgan bu masjidlarda viloyatda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun bebaho manbalardir.

Kasbi tumanidagi Sulton Mirhaydar majmuasidan bir kilometr chamasi shimoli g'arbda, XVI asrda bunyod etilgan Namozgoh saqlanib qolgan. Bunday inshootlar, odatda, aholi hayit namozlarini o'qishi uchun shahar tashqarisida bunyod etilgan. Peshtoqi va bir qator gumbazlari mahorat bilan bunyod etilgan bu inshoot ham hozirda tashlandi ahvolda. Atrofidagi keng maydon yantoqzorga aylangan.

Qarshi tumanidagi Potron qishlog'ida Yetti tug' ota ziyoratgohi mavjud. Bu yerda shajara jihatidan Hazrati Alining o'g'illari Hasan va Husaynga borib tutashishi aytiladigan avliyo Mirsayyid Fathulloh va uning avlodlari dafn qilingan. Bugungi kunda ushbu manzil bir qadar obod, biroq ayrim ta'mir ishlariga muhoj, qolaversa, turistik marshrutdan chetda qolgan.

Qarshi shahriga biror mahalliy yoki xorijlik sayyoh kelsa, uni darhol Shahrisabzga, Oqsaroy majmuasiga olib borishga intilamiz. Vaholanki, Qarshi va uning atrofidagi hududlarda ham turistlar e'tiborini o'ziga tortadigan me'moriy obidalar bisyor. Deylik, Qarshi tumanidagi Abul Muin Nasafiy majmuasiga boradigan mehmon yo'l-yo'lakay Yetti tug' ota, Shamsiddin Halvoniy ziyoratgohlarida ham bo'lsa, taassurotlari boyishi aniq.

Kitob tumanidagi qadamjolardan biri – Sohobqiron Amir Temurning piri Shoh Said Ne'matulloh ibn Abdulloh ibn Abdurahmon (1330–1431) nomi bilan bog'liq. Bu ziyoratgoh tuman markazidan 23 kilometr uzoqlikdagi Mo'g'ul qishlog'ida joylashgan. Said Ne'matulloh islom olamidagi zabardast zotlardan bo'lib, so'fiylikning “Ne'matullohiya” yo'nalishi asoschisidir. Bu ta'limot Naqshbandiya tariqati kabi mashhurdir. Said Ne'matulloh arab va fors tillarida 400 dan ortiq turli masalalar yoritilgan yozishmalar bitgan va ularning 110 tasi bizgacha yetib kelgan. U kishi Mo'g'ul qishlog'ida 6 yil yashagan. Ayni paytda Said Ne'matulloh yashagan joy ziyoratgohga aylantirilgan bo'lsa-da, hanuzgacha turizm yo'nalishlaridan chetda qolib kelmoqda. Sababi, yo'l ta'mirga muhoj.

Yana bir bebaho yodgorlik Mirishkor tumanidagi Guliston qishlog'ida joylashgan Pazdaviylar ziyoratgohidir. Unga olib boruvchi 7 kilometr yo'l yaroqsiz holga kelgan hamda bu holat sayohatchilar va ziyoratchilar uchun noqulaylikni yuzaga keltiryapti. Guliston qishlog'i yaqinida o'rta asrlar yozma manbalarida, xususan, Istahriy, Muqaddasiy, ibn Havqal asarlarida tilga olingan Pazda shahri xarobalari bo'lgan Ko'hna Fazli yodgorligi mavjud. Manbalarda Pazda shahri Nasaf shahridan ham katta bo'lgani tilga olinadi. Shahar mo'g'ullar istilosi davrida butkul vayron qilingan va qayta tiklanmagan. Shuning uchun bu shaharning arxeologik relyefi, tarixiy topografiyasi 1319-1320-yildan to hozirga qadar buzilmasdan kelgan va Ko'hna Fazli yodgorligi Movarounnahrning rivojlangan o'rta asrlar davri shaharlarini arxeologik jihatdan o'rganish va arxeologik turizm uchun etalon yodgorlik bo'la oladi.

Mana shu shaharda kamolga yetib, “Islomning faxri” degan sharafli nomni olgan, umrining katta qismini Samarqandda o'tkazgan ulug' alloma Pazdaviy (1010–1089) Hanafiya mazhabining yirik fiqhshunos olimi bo'lib, islom huquqshunosligi



qarovga, nazoratga muhoj. Obixonadan savdo do'koni sifatida foydalanilganini qanday izohlama bo'ladi? Tarixiy minorani ham qo'shni xonadonlarning qurilishlari har tomondan qurshab olmoqda.

Obixona va minoradan o'tib, biroz janubda ikki qavatli Avg'onbog' madrasasi joylashgan. Bu bino G'uzor bekligining so'nggi yillarida, anirog'i, 1913-yilda barpo etilgan. Madrasaning birinchi qavat sahni atrofida to'rtburchak shaklda 24 ta hujra joylashgan, ikkinchi qavatga chiqish uchun zinapoyalar bor. Ikkinchi qavatda 7 ta hujra joylashgan. Har bir hujra tepasida alohida an'anaviy past gumbazlar bor.

Avg'onbog' madrasasi ham davlat muhofazasiga olingan. Hukumatning 2013-yil 1-noyabrda tegishli qaroriga asosan (ayni paytda kuchini yo'qotgan) mazkur madrasani ham restavratsiya qilish rejalashtirilgan. Buning uchun turli manbalar hisobidan 100 ming dollar ekvivalentida mablag' sarflash ko'zda tutilgan edi. Biroq bu ishlar amalga oshmagan, natijada ko'p yillar davomida ushbu obida ham chiqindixonaga aylanib qolgan. Keyinchalik ushbu madrasaga tadbirkorlik subyekti vaqtincha egalik qilib, kelin-kuyovlar aylanadigan va suratga tushadigan joyga aylantirilgan.

G'uzor tumanining Cho'g'urtma mahallasidagi Xo'ja Abulays jome masjidi va boshqa tarixiy manzilgohlar ham chuqur o'rganilishi va rekonstruksiya qilinishi zarur. Bu yerda arablar kirib kelgan davrlarda qad rostlagan masjid hamda undan avvalgi davrlarda mavjud bo'lgan zardushtiylik ibodatxonalari o'rnini borligi e'tiborga molik.

Vohaning qadimgi me'morchiligida sardobalar alohida o'rin tutgan. Geografik joylashuvi, tabiati va relyefiga ko'ra qor-yomg'irdan, anhor-ariq va yerosti suvlaridan to'ldirilgan sardobalar tarixi IX-X asrlarga borib taqaladi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Movarounnahrda 44 ta sardoba mavjud bo'lsa, ularning 29 tasi Qarshi cho'lida joylashgan. Ammo bugungi kunda Qarshi sardobasi sayyohlarga namoyish etiladigan emas, go'yo yashirib qo'yilgan manzilday, “bormi-bor” qabiliida turibdi. Muborak, Kasbi tumanlaridagi ko'hna sardobalar esa yemirilib, yo'qlik sari yuz tutmoqda. Ularni qayta ta'mirlash, atrofini obodonlashtirish, sayyohlik yo'nalishlari bilan bog'liq loyihalarga kiritish dardor.

Nishon tumanida ham tarixi uzoq asrlarga borib tutashadigan yodgorliklar talaygina. Jumladan, Otquduq qishlog'ida joylashgan, XIV asrga oid Nayman ota maqbarasi bilan bog'liq dalillar ahamiyatli. Bu yerda junaydiya tariqati asoschisi, 910-yilda vafot etgan Junayd Bag'dodiy qabrtoshi mavjudligi qiziq. Tarixdan ma'lumki, mutasavvuf alloma Bag'dodda yashagan va o'sha yerda dafn qilingan. Junayd Bag'dodiyni Alisher Navoiy, Shayx Shibliy yuksak e'tirof etishgan. Amir Temur Qarshi shahriga Abu Ubayda ibn Jarroh xokini keltirgani kabi Junayd Bag'dodiy xokini ham keltirgan bo'lishi mumkin, degan taxminlar bor. Nima bo'lganda ham, alloma bilan bog'liq joy ziyoratgohga aylantirilsa, sayyohlar oqimi ko'payishi, shubhasiz.

“Qashqadaryo so'fiylik maktabi asoschisi” deya ta'rif beriladigan Abu Turob Naxshabiy (806–887) abadiy qo'nim topgan manzil ham Nishon tumanida bo'lishi mumkin. Manbalarda alloma Basrada vafot etgani aytiladi, biroq Nishon tumanida uning

ismi keltirilgan qabrtosh topilgan. Demak, bu borada ham o'rganishlar olib borish foydadan xoli bo'lmaydi.

Dehqonobod tumanidagi Oqrabot mahallasida muhim strategik makon vazifasini bajargan ko'hna qal'a xarobalari saqlanib qolgan. Mazkur xarobalar bundan 2300-yil avval yurtimizga bostirib kirgan Aleksandr Makedonskiy nomi bilan bog'liq, deb hisoblanadi. Aytishlaricha, Markaziy Osiyoga yurish qilgan Makedonskiy Dehqonobodda qishlagan bo'lishi mumkin, shuning uchun o'zi va askarlari uchun grek uslubidagi qal'a barpo ettirgan. Aslida, bu asossiz rivoyat emas. Chunki Surxondaryo viloyatida Makedon kanali bor, Afg'oniston bilan chegarada esa Aleksandr Makedonskiy qurilgan qal'a xarobalari saqlanib qolgan. Demak, Dehqonobodda yunon-makedon qo'shinlari bo'lgani ehtimoldan uzoq emas. Bugungi kunda ushbu qal'a cho'kkan va ma'lum qismigina yer ustida qolgan. Makedonskiy qal'asi deya taxmin qilinayotgan maskan to'liq o'rganilmagan. Ammo bu yer O'zbekistonning qadim madaniyat beshiklaridan bo'lganiga shubha yo'q.

Yuqorida nomlari keltirilgan obyektlar tushunari, ularning barpo etilganiga uzoq davr o'tgan, ammo yaqin yillarda qad rostlagan yodgorliklar ham kishini o'ylantiradi. Bugungi kunda Qarshi shahrida 6 ta monumental san'at yodgorligi davlat ro'yxatiga olingan. Ularning 4 tasi mustaqillik davrida barpo etilgan bo'lsa, Kat mahallasidagi Ikkinchi Jahon urushi qatnashchilariga o'rnatilgan yodgorlik hamda Xo'jaxiyol mahallasida joylashgan “Shuhrat qo'rg'oni” 1980-yillarda qad rostlagan.

Aytish joiz, ushbu monumental yodgorliklar ichida “Shuhrat qo'rg'oni” maydon jihatidan ham, turistik salohiyati jihatidan ham eng yiriklaridan hisoblanadi. Atrofi obodonlashtirilgan bo'lsa-da, qo'rg'on va unga tutash xonalar bo'm-bo'sh turibdi. Bu yerda Ikkinchi Jahon urushi va frontorti bilan bog'liq ko'rgazmalar, muzey faoliyatini yo'lga qo'yish, turli tadbirlar o'tkazish mumkin. Yon-atrofda davom etayotgan qurilishlar shiddati ushbu qo'rg'onni yaqin yillar ichida yo'qotib yuborishi ehtimoli ham yo'q emas.

Yuqorida keltirilgan bir nechta yodgorliklarning o'ziyoq voha tarixi naqadar uzoq asrlarga tutashi, bu yerda ne-ne buyuk zotlar mangu ormon olayotganidan darak beradi. Bu yodgorliklarni belgilangan talablar asosida saqlash, ta'mirlash kim uchundir ortiqcha muammo, xarajat manbayi sifatida ko'rinishi mumkin. Ammo ularning tarixiy qiymatini bilganlar uchun bu katta boylik.

Hududlarda mas'ullar goh u goh bu obidani ta'mirlash bo'yicha yillik dasturlarga kiritish bilan ovora. Ammo dasturga kiritilgani bilan amaliy ish qilinmasa, bari bekor. Milliy madaniyatimiz, xalqimizning qadimiy tarixidan so'zlaydigan noyob yodgorliklarni asrash, o'rganish, tadqiq etish va avlodlarga yetkazish kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etayotgan bugungi kunda tarixiy obidalar bu qadar o'z holiga tashlab qo'yilmasligi kerak. Shunga ko'ra, mahalliy hokimliklar boshchiligidagi tarixiy yodgorliklar qayta o'rganilib, bugungi ahvolda qarab tegishli chora-tadbirlar belgilanishi zarur.

Viloyat madaniy meros boshqarmasida vohadagi barcha tarixiy yodgorliklar, qo'rg'on-u qasrlar, madrasa-yu masjidlardan tortib, hali o'rganilmagan tepaliklarga ham bo'lgan umumiy ma'lumotlar bazasi bor. Ammo aynan tarixiy yodgorliklar, ularning bugungi kundagi holati haqida ma'lumot beruvchi sayt yoki ijtimoiy tarmoqda biror kanal yo'q. Biror tarixiy inshoot buzilib yoki yo'q bo'lib ketayotgan bo'lsa, bu borada kimga murojaat qilish kerak – bu bo'yicha ham savollar yetarli.

Tarixiy yodgorliklarni tadqiq etish, ta'mirlash, bu yerda zarur shart-sharoitlarni yaratish orqali ko'hna manzilgohlarning asl qiyofasini yaratish va sayyohlar oqimini hosil qilish mumkin. Bu esa, hududga har yili minglab sayyohlar tashrif, daromad manbayi deganidir. Faqat buning uchun astoydil harakat qilish talab etiladi.

Bekzod SAYFIYEV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Qashqadaryo viloyati bo'limi bosh mutaxassisi






MILLAT FIDOYILARI

Tarix sharaflı nomlarda mujassam. Ismoil G'asprali deyxishimiz bilan butun bir ma'rifatparvarlik to'iqini, tafakkur islohoti va ijtimoiy uyg'onish jarayoni ko'z oldimizda gavdalanadi. Professor Begali Qosimov ta'kidlaganidek: "Bu nom yuz yil muqaddam turkiy dunyodagi eng mashhur nom edi. Uni Qashqardan Londongacha, Sankt-Peterburgdan Bombeygacha bilar edilar".

Ismoil G'aspralining Qrimda boshlagan jadidlik harakati bir muddat o'tib, Xorazmga ham kirib keldi. Xiva xoni Feruzxon, valiahd Asfandiyorxon, qozikalon Salimoxun, Mamat mahram va bosh vazir Islomxo'ja kabi davlat arboblari xayrixohligi tufayli Xiva, Yangi Urganch va boshqa hududlarda jadid maktablari tashkil etildi. Jadidlik harakati bu yerda ham dastlab ma'rifiy yo'nalishda quloch yoyib, tobora ijtimoiy ahamiyat kasb eta bordi. Har bir hududning o'z yetuk namoyandalari yetishib chiqdi.

Ana shunday tarixiy muhitda, jadidlik g'oyalari Xorazmda asta-sekin ildiz o'tayotgan bir pallada, 1898-yili Xiva xonligining Qo'ng'iro't bekligida qahramonimiz Menlihoji Ibniaminov dunyoga keldi. U chorvador oilada tug'ilgan bo'lsa-da, bu uning jadidlik g'oyalariidan yiroq o'sganini anglatmaydi, aksincha, tarbiya topgan muhitida zamon talab qilayotgan islohotlarga ehtiyoj kun sayin kuchayib borar, shu jihatdan, Menlihoji kabi yoshlarning ilg'or g'oyalari ta'sirida o'sib-ulg'ayishi tabiiy jarayon edi.

Hujjatlarda Menlihoji Ibniaminov tahsil borasida aytarli ma'lumot uchramaydi. Qaydlar uning 1921-yili Xorazm Xalq Sovet Respublikasi xalq vakillari qurultoyida Vazirlar Kengashi raisi etib saylanganiga bog'lanib ketadi. Qahramonimiz o'shanda bor-yo'g'i 23 yoshda edi. Avvalo, navqiron yosh ortida jadid muhitida shakllangan, ta'lim orqali dunyoqarashi teranlashgan, siyosiy voqeilikka befarq qaramaydigan shaxs qiyofasini ko'ramiz. Qolaversa,



“Kimki tarix saboqlarini unutsa, ularni takrorlashga mahkumdır.

Jorj SANTAYANA

UYG'OQ XOTIRA

MUDHISH DAVR JAROHATLARI

Sobiq tuzumning mash'um qatag'on yillarida 100 mingdan ziyod begunoh vatandoshimiz qatag'on qilingani, minglab yurtdoshlarimiz "xalq dushmani" degan nohaq ayblov bilan otib tashlangani, undan ham ko'pi surgun qilingani, ularning ortidan minglab ayollar beva, bolalar yetim bo'lib qolgani xalqimizning qalbidagi o'chmas jarohatlardir. Oradan qariyb bir asr o'tgan bo'lsa-da, o'sha mudhish davrlarni chuqur iztirob bilan yodga olamiz. Bu aynanchli voqealar barchamizni mustaqillikning mohiyatini chuqur anglashga, bugungi erkin hayotimizni yanada qadrlashga undaydi.

Shu bois, Vatanimiz fidoyilarini ulug'lash, xotirasini abadiylashtirish bo'yicha ko'p ishlar qilinayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Xususan, so'nggi 8 yilda 1 ming 200 dan ziyod jafokash bobolarimiz nomi oqlandi. "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi rekonstruksiya qilinib, minglab yangi hujjatlar bilan to'ldirildi. Hududlarda ham shunday muzeylar faoliyati yo'lga qo'yildi. Buxoro shahrida Jadidlar merosi davlat muzeyi tashkil qilinmoqda.

O'tgan yildan e'tiboran, har yili oktyabr oyining birinchi haftasi Siyosiy qatag'on qurbonlarini yod etish

haftaligi sifatida o'tkazilmoqda. Bu yil ushbu tadbir Xotira va tarbiya haftaligi sifatida o'tkazilishi e'lon qilindi. Shu munosabat bilan maktab va universitetlarda qo'shimcha darslar, telekanallarda maxsus ko'rsatuvlar berish, yoshlar o'rtasida tanlovlar o'tkazish rejalashtirilmoqda.

Bu yil o'zbek jadid harakatining yo'lbo'shchisi, ulug' ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlayapmiz. Mustaqillik kuni bayrami arafasida Prezidentimizning farmoni bilan tanilgi jadidshunos olim, fan arbobi Begali Qosimovning "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlanishi nafaqat jadidlar, balki ularning merosini o'rgangan, qayta tiklagan olimlarga ham yuksak ehtirom ko'rsatilayotganidan dalolatdir.

Albatta, bu ezgu ishlar bejiz amalga oshirilayotgani yo'q. Ayni zamonda ma'naviyat maydonida qanday qaltis va ko'p qirrali kurash ketayotganini hammamiz ko'rib, kuzatib turibmiz. Shunday murakkab jarayonda jadid ma'rifatparvarlarining g'oyalari yoshlarimizni tarbiyalash va yot g'oyalardan asrashda, ularning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Gulnoza JO'RAYEVA, filologiya fanlari doktori, professor



Muhammadrahimov keskin qarshilik ko'rsatadi.

RSFSRning Xorazmdagi muxtor vakili Iosif Bik 1921-yil 10-noyabrda o'zining tashqi ishlar xalq komissarligiga yozgan xatida: "Hozirgi Xorazmning hukumat rahbarlari Xorazm uchun kerak emas. Hukumat butunlay Menlihoji Ibniaminov va Otamaxsumoxun Muhammadrahimov qo'lga o'tdi. Milliy masala bilan

avval bo'lgani kabi, bu murojaat ham e'tiborsiz qoldiriladi. Natijada vaziyat yanada keskin tus oladi.

1921-yil 23-noyabrda Otamaxsumoxun Muhammadrahimov, Menlihoji Ibniaminov boshchiligida hukumat yig'ilishi o'tkazilib, Iosif Bik 24 soat ichida XXSR hududini tark etishi bo'yicha qaror imzolandi. Ushbu qaror radio orqali ham o'qib eshittiriladi. Shundan so'nggina vaziyat tarangligini sezgan markaz qo'zg'aladi – Iosif Bikni qaytarishni rasman ma'lum qiladi.

Ammo Bik qarorga bo'ysunmay, 27-noyabr kuni Xivadagi qizil armiya qo'shinlariga tayangan holda, favqulodda majlis chaqiradi. O'sha kunning o'zida uyushtirilgan fitnaga ko'ra, bir qator shaxslar "xalq dushmani"ga chiqarilib, qamash va otib tashlashga qaror qilinadi.

TARIX VA TAQDIR

Milliy ozodlik harakati ishtirokchilari qatorida xotin-qizlar borligi ko'pchilik uchun yangilik. Aslida, Turkiston ayollarining chavandozlikda, qilichbozlik, kamondan o'q uzish singari harb ishlarida mohir ekani, temuriylar qo'shinida ham nozik xilqat vakillalari bo'lganiga tarix guvohlik beradi. Ularning munosib avlodlaridan biri Nodira Rahmatillaboy qizidir. U haqidagi ma'lumot ko'p emas. Faqat tarixchi olimlar Qahramon Rajabov hamda Said Mansur Olimiyning izlanishlari tufayli qahramon qiz hayotining ayrim sahifalariga oydinlik kiritilgan.

KARMANALIK ERKSEVAR QIZ

Nodira Rahmatillaboy qizi 1904-yili Karmana bekligiga qarashli Ziyovuddin qishlog'ida, ziyoli oilada dunyoga kelgan. Ikki akasi chavandozlik, kurash va merganlikda o'z muzofotida tengsiz bo'lgan. Ular maktab sabog'ini puxta o'zlashtirgan singilga o'z hunarlarini o'rgatadi. Yigitlar orasida o'sgani uchunmi, g'ayrati ichiga sig'magan qiz erkakcha kiyinib ot choptirar, akalari bilan bellashardi.

1923-yilda qishloqqa bostirib kirgan qizil askarlar Rahmatillaboyning ikki o'g'lini o'ldirib, odamlarni talab, qishloqni vayron qiladi. Jigalarining dog'iga chidolmagan qiz ko'zyoshidan foyda yo'qligini anglab, o'ch olishga ahd qiladi. Tezda milliy ozodlik harakati guruhlariga qo'shilib, ikki yil davomida kurash olib boradi. Xalq orasida nom qozongan qizning jasorati odamlarga umid beradi, hatto, yov oldida ikkilanib qolgan erkaklar ham undan ibrat olib, qayta urushga kiradi.

Ammo sho'rolar qo'li baland kelib, istiqloq kurashchilari safi kundan kunga qisqarib borar ekan, 1925-yilda Rahmatillaboy qizini olib Afg'onistonga ko'chib ketadi. Afsuski, yurtdoshlarimiz bu o'lkada ham halovat topmaydi. 1929-yilda hokimiyat tepasiga kelgan Nodirshohning ta'qib-u xo'riklariga duchor bo'ladi.

Nodirshoh o'zidan oldingi hukmdorlardan farqli ravishda, Turkistondan kelgan qochqinlarga iltifot ko'rsatmaydi, hatto sovetlarga qarshi kurashayotgan istiqloqlchilarning dastalariga

ayrim intelligentsiya shug'ullanadi", deb yozadi.

19-noyabr kuni Iosif Bik ichki ishlariga aralashgani uchun uning vohaga qaytib kelmasligi talab qilinib, markazga murojaat yo'llanadi. Ammo bunga vaqtda munosabat bildirilmaydi. 22-noyabrda sovet hukumatiga navbatdagi radiotelegramma yuboriladi. Unda Iosif Bik o'z vakolati doirasidan chiqib, Xorazm hukumatini xalq dushmani sifatida targ'ib qilayotgani, millatlar orasida adovat qo'zg'atayotgani aytiladi. Shu bois, uni zudlik bilan chaqirib olish qat'iy talab qilinadi. Agar masala yechimini topmasa, "o'ziga yaxshi bo'lmasligi" haqida ogohlantiriladi. Biroq



Menlihoji Ibniaminov (1898–1938)

Bik shundan so'ng Xivadagi pulemyot va miltiq bilan qurollangan 300 nafar qizil armiya qo'shinini ishga soladi. Avvaliga, harbiy nozir Mirkomil Mirsharopovning uyiga bostirib kirib, butun hovlini o'qqa tutdiradi. Uni ko'chada olomon ko'z o'ngida do'pposlangan holda olib ketishadi. Keyin Otamaxsumoxunning uyi nishonga olinadi, biroq o'zini topishning iloji bo'lmaydi.

Notinch siyosiy vaziyat oqibatida Menlihoji Ibniaminov ham turli ayblovlariga duchor bo'ladi. "Panislomchilik", "Milliy ittihad" tashkilotida faol ishtirok etganlikda ayblanib hibsga olinadi hamda harbiy sudga topshiriladi. Sud uni dastlab otuvga hukm qiladi. Biroq tez orada ish qayta ko'rib chiqilib, jazo 10 yillik qamoq bilan almashtiriladi. Tekshiruvlarda bo'yniga ilingan ayblovlar o'z tasdig'ini topavermagach, qahramonimiz ozod etilib, yana lavozimga qaytadi. Xususan, 1921-yil 27-noyabrda XXSR Markaziy ijroiya komiteti tomonidan Xalq kengashi vaziri o'rinbosari vazifasiga tayinlanadi.

Menlihoji Ibniaminov 1923-yil 20-oktyabrda chaqirilgan Xorazm sovetlari syezida Markaziy ijroiya komiteti a'zoliciga saylanadi. Ortidan 22-oktyabr kuni qabul qilingan qarorga ko'ra, XXSR Ichki ishlar vaziri lavozimiga qo'yiladi.

1924-yilning martida RKP(b) Markaziy qo'mitasining O'rta Osiyo byurosi raisi R.I.Karklin Xorazmga keladi. Boshqacha aytganda, bu holni markazning siyosiy vaziyatni o'z yo'nalishiga solish borasidagi qat'iy harakatlaridan biri sifatida baholash mumkin.

Bu jarayonda Menlihoji Ibniaminovning yuqori mansablarni egallashi uning hokimiyat tizimidagi nufuzini yanada

mustahkamlaydi. Bir tomondan, ushbu tayinlov qahramonimiz tajribasi tan olinganini ko'rsatsa, boshqa tomondan, markazning unga nisbatan ishonchini saqlayotganini ham anglatardi.


Menlihoji Ibniaminov 1925-yildan boshlab savdo sohasidagi mas'ul lavozimlarda faoliyat yuritadi. Bu yillarda uning ma'muriy sohadagi tajribasi, tashkiliy salohiyati yanada yuksaladi. Hukumat tizimida uzluksiz ishlashi uni turli sohalarda: siyosat, maorif, savdo, iqtisodda yetuk boshqaruvchi sifatida kamol topitradi.

...1937-yili avj olgan qatag'on to'iqini Xorazm va Qoraqalpog'iston mintaqasini ham qamrab, sentyabr oyida Menlihoji Ibniaminovga nisbatan jinoyi ish qo'zg'atiladi. Yetti oy davom etgan qiynoqlardan so'ng, 1938-yil 14-aprelda Qoraqalpog'iston ASSR Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi davlat xavfsizligi organlari tomonidan Ibniaminovga O'zbekiston SSR Jinoyat Kodeksining 63-64-moddalari bilan ayblov hukmi e'lon qilinadi.

1938-yil 13-oktyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining ko'chma sessiyasida O'zbekistondagi 42 mahbus otuvga hukm qilinadi va ro'yxatdagi 9-mahbus Menlihoji Ibniaminov, u bilan birga el ozodligi uchun kurashgan Safarboy Nurjanov, Ollonazar Pirnazarov, O'razinbet Dinmanov, Mambet Jaxsimurodov, Allaniyoz Ayteshev, Abu Qudaboyev, Ander Tashenov va boshqalar qatl qilinadi.

Biz bir og'iz "qatl" degan so'zni umummillat fidoyilari taqdiriga tegishli ekanini, bu ifoda ortida fidoyi inson qismati bilan birga bosqinchilarning vahshiyona siyosati, yerli aholini odam o'rvida ko'rmasligi, qolaversa, har bir "xalq dushmani" tamg'asi bosilgan shaxs ortida qolgan oilasi: ota-onasi, jigarlari, ahli ayoli, murg'ak bolalarining ham umri uqubatga aylanganini tasavvur qilishimiz kerak. Bu fojialarning bari mustamlaka kasofati, el-elatning yagona g'oya atrofida birlashib, yakdil bo'la olmagan, fikriy parokandalik va mahalliychilik kabi illatlar tufayli millat boshiga tushganini unutmashlik shart. Zero, har bir qatag'on qurboni timsolida bugungi avlod uchun ibratli tarix sabog'i mujassamdır.

Rustambek SHAMSUTDINOV, tarix fanlari doktori, professor



hujum uyushtirib, aksariyatiga zarar yetkazadi. Qo'rboshilar qiyin vaziyatda qolib, ikki frontda kurash olib borishga majbur bo'ladi. Ibrohimbek, O'tanbek singari qo'mondonlar ham mana shunday xurujlar ortidan zaiflashib, mahv etiladi.

Bir kuni afg'onlar kiyimidagi ikki yigit Rahmatillaboyning uyiga kirib keladi va cholning yoqasiga yopishib, tirik qolishni istasa, yashirib qo'yg'an boyliklarini topshirishni talab qiladi. Ma'lum bo'ladiki, ular mahalliy aholi kiyimidagi qizil askarlar ekan. Askarlar borini olgach, va'daga vaf o'rninga chol-kampirni o'ldiradi va qizga tajovuz qilmoqchi bo'ladi. Bunday yovuzlikni ko'rgan Nodira har ikkisini qilich bilan chopib tashlaydi.

Shundan so'ng Nodira turkistonlik muhojir xotin-qizlarni to'plab, maxsus guruh tuzadi va 1930-yili Tahor viloyatining markazi Toliqonda turgan Ibrohimbek ko'shiniga kelib qo'shiladi. Mashhur lashkarboshi Ibrohimbek Karmananing bu jasur qizi bilan ota-bola tutinadi. 1931-yili Ibrohimbek SSSR hududiga kirganida, uning qo'shini safida Nodira ham bo'lgan. Aynan uning guruhı qizil askarlarga kuchli zarbalar bergani ma'lum. Afsuski, Nodiraning 1931-yil yozidan keyingi taqdiri hozircha noma'lumligicha qolmoqda.

Nodira Rahmatillaboy qizining qahramonligi va mardona hayoti, bemisli shijoati va vatanparvarligi tarixiy-badiiy kitoblar yoki kino asarlarda aks etsa, barchamiz, ayniqsa, yoshlar uchun ibratli bo'lardi.

Hamzabek TURDIYEV

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Najab Qurbonov (Sharipov Yusuf To'pponcha) – 1888-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. Oilali, oliy ma'lumotli.

Inqilobgacha to'qimachilik ustaxonalari egasi bo'lgan. "Milliy ittihad" tashkiloti safiga kirib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davrida milliy ozodlik harakati guruhlarini tuzishda va qurollantirishda ishtirok etgan.

Buxoro shahar Soveti raisi lavozimini egallab turgan vaqtda sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibot olib borishda, erkarparvar kuchlarni ko'llab-quvvatlashda ayblanib, O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 63- va 66-moddalari bilan 1937-yil 5-yanvarda hibsga olingan. Ichki ishlar xalq komissarligi (IIXK) huzuridagi "uchlik" tomonidan 1937-yil 17-avgustda unga nisbatan o'lim hukmi o'qiladi va 26-avgustda otib tashlanadi.

Mirbobo Mirmuhsinov – 1868-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. 1929-yilga qadar yirik qorako'l terisi savdosi bilan shug'ullangan.

"Milliy ittihad" tashkilotiga a'zo bo'lganlikda, 1922-1923-yillarda Sharqiy Buxoroda sovet hokimiyatiga qarshi qo'zg'olon ko'tarish va amirlikni tiklashga uringanlikda, yillar davomida sovet hokimiyatiga qarshi tizimli tashviqot yuritishda ayblanib, 1936-yil 10-dekabrda IIXK tomonidan hibsga olingan.

O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-qismi bilan "uchlik" tomonidan 1937-yil 17-avgustda otuvga hukm qilingan.

Rajab Muhammadiyev – 1874-yili Bauman tumanida (hozirgi Shofirkon) tug'ilgan. Oliy diniy ma'lumotli.

O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-qismi bo'yicha ayblanib, 1937-yil 9-yanvarda hibsga olingan. Uning "ayb"lari quyidagilardan iborat: "Milliy ittihad"ning faol a'zosi bo'lgan; 1920-yilda Boku shahrida bo'lib o'tgan Sharq xalqlari qurultoyida qatnashgan va Anvar Poshoni himoya qilib chiqqan; 1921-yili Turkiyaga kelib Mustafo Kamol Posho bilan o'tkazilgan muzokaralarda bolsheviklarga qarshi kurashda yordam so'ragan; kolxozchilarga milliy istiqloq g'oyasini singdirgan.

Rajab Muhammadiyev 1937-yil 17-avgustda – 63 yoshida otuvga hukm qilingan.

Mustafo Ismoilzoda – 1906-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. Oliy diniy ma'lumotli.

Milliy ozodlikka erishish umidida tuzilgan "Milliy ittihad" tashkilotining sobiq a'zolari yig'ilishlarida doimiy ishtirok etgan. Bir necha bor I.V.Stalin shaxsiga nisbatan haqoratomuz fikrlarni aytib, sovet hokimiyatiga qarshi qarashlarini ochiq-oydin bildirganlikda ayblangan.

IIXK tomonidan 1936-yil 1-noyabrda hibsga olingan. 1937-yil 1-sentyabrdan 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga jo'natilgan.

Jo'ra Mo'minov – 1893-yili Buxoro shahrida tug'ilgan, sobiq savdogar.

"Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davrida milliy ozodlik harakati guruhlarini tashkil etish va ularni qurollantirishda ayblangan. Bir necha bor yig'ilishlarda va o'z hududida sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibotni olib borganlikda, "xalq dushmanlari"ni maqtaganlikda ayblangan.

1936-yil 21-noyabrda IIXK tomonidan hibsga olinib, O'zSSR Jinoyat kodeksining 63- va 66-moddalari bo'yicha "uchlik" tomonidan 1937-yil 17-avgustda otuvga hukm qilingan.

Azizbek MAHKAMOV, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA, muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonida).



HAJV

– O'v, paqirkalla, nega men gap boshlasam, qiyomiga yetgan pivaxo'rga o'xshab, tizzangni tizzangga ishqab, sovuylgan otday depsinasan? Bir paytlar “Men dardimni kimga aytaman?” degan qo'shiq bo'lgich edi. Vaqtida “Ha, endi, buyam bir ashula-da”, deb uncha parvo qilmagan ekanmiz. Bechara shoir azbaroyi ichi kuyganidan nima qilishini bilmay yozganakan-da endi bilsam.

Xo'p, gapni oxirigacha eshit, eriyman, yarimtaga eriyman. Xullas, o'g'il janavarlar yonimga kirib, topgan-tutganidan cho'tal tashlaydigan bo'ganidan beri akangga jir bitib, mahalladagi O'ktam xachir deganlariyam qo'sh-qo'llab ko'rishishga o'tganiga o'zing guvoh. Odamlar qiziq-da, senga teshik tangacha foydasi bo'ladimi-yo'qmi, kissangdan soqqa hidini olsa darrov o'zgaradi. Ha, mullajirning havoysi unchamuncha kursi-kalondan baland. Xo'p, gapni qisqa qilaman. Ana endi, indallo gap shuki, shayton yetaklab, qo'shni qishloqqa aylimgan savziarcharga borib qopman. Ha, to'g'ri topding, Quyqaga. Gap orasi A'zam shilta “shulay-bulay, palonchini kenjasi palon o'qishga super kontraktga ilashibdi-yu, suyasib yuboradigan sheri mard topilmayapti”, deb sopol kosani ketiga Chust pichog'ini ishqab qoldi. “O'bba, sulikat-e, joyidan tutamladi-yu”, deb shing'ov tortdim-u, bir hisobdan gapning paynovi meni shonli tomorqamga burliganidan yuzimda hosil bo'lgan tabassumni taxtakach bilan picha yopib, yolg'ontakam yo'talib oldim. Qarasam, hammaning ko'zi meni sinovchan paypaslayapti. Shayton qitiqladi, chordanadan cho'kkaga o'tdim, xuddi hozirning o'zida qo'ynimdan qaddi salomga egilmagan ikki yuz mingtalikni o'ramini mushukni o'ligiday qilib, yakandozni o'rtasiga do'ppilatib tashlaydiganday so'zni so'zdan ajratmasdan “Nechpulbo'larkano'zi?” deb sayrab yuboribman. Qistalaq shilta og'zimdan oldi-yu yoqamga yopishtirdi: “Bor-yo'g'i paloncha”. O'sha “bor-yo'g'i”ga ikkita pishqirib turgan so'qimni darvozamga bog'lab ketadi. Men dardimni kimga aytaman? “Tilimga bog'la, tilimga!” Savzito'g'ardan keyingi shavla qayyoqqa ketdi, akang hayron. Xullas, chorig'imni sudrab uyga qayt yapman-u, xotin akamga nima deyman, uning chovutidan mullajirning qanaqib ajratib olaman-u, naylab hisobotini qilaman, degan shum savollar oyodan chaladi degin.

Ke, xotin bilan nahorda tashasharman deb, ichkari kirmay, ayvondagi sholchaga yonboshlab qo'ya qoldim. Saharda oyog'imga qoqilib ketgan yorijonimni qayrilgan qarq'ishidan cho'chib uyg'o-nibman: “Lloyo, shu araq deganlarini zavodiga dron tushsin! Shu er degan



maxluqqa quyib uzatganni qo'llari akashak bo'lib, tahoratigayam hasharchi chaqiradigan bo'lsin! Lloyo ilovando, savzi to'g'ratganlar bir umr erkak savzini po'chog'iday beqadr-u xor bo'lsin!..” Alam qilmaydimi? Ayvonni ustuniga o'ralib olgan shaytonvachcha pushti tilini chiqarib vosvoslaydi. Tavakkal deb, baloi ofatni rapata og'ziga nosqovoqni ravona qivoray degan mo'llal ham yo'q bo'madi. Axir o'zing o'yla, tanglayimga bir ho'plam tekkan bo'lsa, tulagan to'ng'izga ichkuyov bo'lay! Qolaversa, A'zam shiltani bilasan, vinoni hidi keladigan chirik uzumniyam chiqitga chiqarmaydi. Er-xotin peshayvonda tonggi konsertni endi avj oldiryatuvdik, darvoza taqillab qolsa bo'ladimi? Darrov qisqa antrakt e'lon qilib, chiqishga qarab shitob yo'rg'aladim. Xotinni qo'lida o'qlovi dutor, “ting'ir-ting'ir” qilgancha dog'da qolaverdi.

Endi gapni, paqirkalla, ko'chadarvo-zadan eshit. Chiqsam, kiprigi kuygan, osilgan mijiasi to'q qizil, tanqa burun bir novvosiyfat banda turibdi. Luqmoni hakimni muxtor vakilliday bobma-bob sog'lig'imni surishtirdi. Muddao maydoniga amallab sudrab o'tdim. Emishki, bu husni Yusuf kechagi savziarchaning bosh qahramoni – talabalikka nomzodni tug'ishgan amakisi bo'lib, g'arazi – jigarvachchaga atalgan xayriya puliga talabgor ekan. “U valakisalang o'qigani bilan odam bo'lish siyog'i yo'q, maktabniyam sirtidan, ya'ni sport zalni tomida qarta o'ynab bitirgan. Onlayn qimor o'ynab, 8-sinfda otasini ko'k “Jiguli”sini sotishga majbur qilgan. 9-sinfga o'tish ta'tilida esa maktab ahli otdixdaligidan unumli foydalanib, jonli burchakdagi 27 nafar bo'rdoqi quyonni Ultarma mol bozorida echki bola deb taqdim etib,

sodda fuqarolarga pullayotgan chog'i qo'lga tushgan...” E, to'g'ri aytasan, juda marazpo'rma nusxa ekan. Menam gapini oxirigacha eshitmasdan qo'limni arra qildim: xo'p, o'shanga men nima qilay?! Birdan sut quyilgan halimdakkin bo'lib ikkala qo'limni juftakay tutib, o'sha atalgan pulni menga bersangiz, bozordan do'kon uchun yer sotib olardim, hozir avji sotasot bo'p yotibdi. Meniyam to'rt-besh nafar norasida xotin-xarishim bor, ham savob bo'ladi, ham pulingizga kuyib qolmayisiz. Besh-o'n yilda dumaloq qilib qaytarib bermasam, Shukur qasamxo'r otimni boshqa qo'yaman, illo-billo, lavzimda turmasam, gumoni hayotligimcha gumdoni lahad bo'p ketay, deb kekirtagini o'ynatib turibdi. Baxtinga xotin akam paqir ko'tarib yolg'ondakam suv sepgani chiqib qoldi. Mendan xavotir olgani aniq: ko'chadagi suvsiz ariqqa tanda qo'yib yotibdimi har doimgidek, deb o'ylagan bo'lsa kerak. Haligi qasamxo'r bozorchi ko'pni ko'rgani rost ekan, yostiqdoshimni bepardoz chehrasiga ko'zi tushgan hamono velosipedini yetaklagan ko'yi sakrab minib, Shumaxerday g'oyib bo'ldi. Menam shuni aytaman-da, odamlaram g'alati-ye! Pulni hidini olsa, tosh devorga kalla qo'yadi. Keyinmi? Keyin boshlandi-da...

Qasamxo'rni izi o'char-o'chmas bir opaxon tikka hovliga bostirib keldi-yu! Haligini oldida Soli qassobni surunkali mov mushugi dam oladi. Tuppa-tuzuk nag'mang borakan, ilmingni xo'r qilib birovni eshigida joylib nimaqasan? Blogger yo ashulachi bo'vomiysanmi, yurarding “Gelik”ni yeldirib, “Tik-tok”ni to'ldirib... Muddaosiimi? Bilib turib suvni mo'ljallaysan-a, janas... U dilbari jonon haligi talabani ammasi bo'lib, o'sha bolani pulini begona qilmaslikni, sho'rtumshuq jijan baribir o'qishga bormasligini, bo'ynidan bog'langan it esa yangi kalishni bulg'ashini va hokazolarni ro'kach qilib, agar bu kishimga omonat o'n yilga berib turilsa, Xitoydan tikka mol olib kelib, Uchko'prik Jahon bozorini gullatish bilan birga el-u yurt ravnaqi va farovonligiga hissa qo'shish bilan savobdan umidvorligini bildirdi. Shu payt tomorqadan jo'xori qayirib qaytgan xonim hazratlari ayol sho'rlikni ilg'ar-ilg'amas meni yoshlikdagi qizo'rtoqlarimdan deb chamaladi shekilli, o'rtayosh polvonning tirsagicha keladigan dumbul bilan savobtalabning qoq och biqinini nishonga oldi. Aftidan jabrdiyda savdogar akangni yorijonini jangovar ta'rifini qoniqarli darajada eshitgan shekilli, hech bir izoh-pizohsiz tuyog'ini shiqillatib qoldi-yu.

Men senga aytсам, paqirkalla, oqibat shu darajaga borib yetdiki, bir faqir tolibi ilmga atalmoqchi bo'lgan oqchanning sifati bolaning rost-yolg'on qarindoshurug'lari ta'rifida “bizni jiyanni haqi”ga aylandi. Go'yoki, men u bolakaydan qarzdorman-u, omonatni yeb-yutib, muttaham bo'lib yuribman.

Bayt:

Opog'dadam aytardi,
savob tagi teshik deb,
Bir uyda har xil bola,
ammo bitta beshik deb.
(Jahlii Murakkab,
“Beh-beh, bulbulim” kulliyoti
897-bet)

Ajoyib kunlarning birida meni tilpo'nda yo'lagan tog'asi agar bolaning haqi yeb ketiladigan bo'lsa, adolatparvar kuchlar borligini, jazo muqarrarligini pisanda qilib, hozircha omonatni yarim-yortisini klik orqali o'tkazib turishimni buyurdi. “Yo'masam, boshingda maymunlar yig'lab, shoqollar uvvos tortadi, tushunvosami, go'salagov?” deb yakun yasadi Chorsuni chapanaliriga o'xshab tovushini zo'riqtirib. Bu dilkusho suhbatdan keyin vafodor shaytonim badar ketdi... Keyin-chi, deysanmi? Bir oycha cho'zilgan “bor-baraka”dan keyin ma'lum va ravshan bo'ldikim, ismi bor-u jismi noayon tolibi ilm allaqachon shimoliy hududlardan birida saksovl ekib, cho'l quvib, mo'maygina daromad topib, manaman degan repetitorlardan saboq olayotgan ekan. Bu xushxabarni o'zaro suhbat asnosida to'ng'ich o'g'lim Kenjabek aytib qoldi. Birga ishlab, bir yotoqxonada turisharkan. Kaminani belboqqa o'ralgan oqchasi ularning bir haftalik moyanasi emish. Xoh ishon, xoh ishonma...

Ammo qoyil qolganim shuki, birorta qorako'z “Agar shu bolaga yordam berayotgan bo'lsang, rahmat senga, bizam baholi qudrat hissa qo'shaylik”, demadi. Aksincha, tirmog'i bori yulishni, tishi bori yulqishni payida. Nega bunaqa bo'p kettidik? Nima uchun tekin bo'lsa, jayrani teskari yutadigan nafs o'p'qonlar ko'paydi? Nima? Imonboylar ham ko'p deysanmi? To'g'ri, ko'p. Insofli tadbirkorlar mo'l deysanmi? To'g'ri, mo'l. Yanayam ko'paysin deymandan, paqirkalla. Bo'pti, men kettidim, xotin tilpo'n uryapti. Gaplashish shartmas, nima derdi, qaysi ochiq go'rda qop ketting, deydi-da. Bir hisobdan shuni boriyam yaxshi. Hayot qiziqarli. Bo'pti, mabodo xotinim razvedkaga tilpo'n qip qosa, o'zgina gurunqlashib qolganimizni aytarsan. Tafsilotlar shartmas, o'rtada shayton bor-a?

Mulla XUNOB

Jadid

Muassislar:



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI



“SHAHIDLILAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan
mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 195115 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19 083

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 434

Lotin yozuvida – 11 649

Media kuzatuvchilar – 81 147

Buyurtma: G – 940.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 21:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

TILBILIM



“O'T-O'LAN”DAGI O'LAN NIMA?

O't-o'lan so'zini ko'p qo'llaymiz. Lekin bu birikmadagi o'lan nima ekanini bilmaymiz. Qadimgi tilimizda ho'l so'zi o'/(o') shaklida, “h” siz qo'llangan, ol keyin ho'l bo'lib ketgan. Hozirgi tilimizda ho'l so'zining asl ko'rinishi o'l faqat o'lan so'zida saqlanib qolgan. “Turkiy tillar etimologik lug'ati”ga ko'ra, o'lan so'zi “yashil o't” va “o'tloq” ma'nosini bildirgan. Sersuv, yosh, ho'l o'tlarni o'lan deyishgan. O'lan aytishdagi o'lan so'zi boshqa mazmunda. Menimcha, aytishuv payti gapni gapga ulab ketish ma'nosida o'lan (ulan) deyishgan bo'lsa kerak.

Alisher Navoiy o'lan so'zini o'lang shaklida, “o't va g'iyoh” ma'nosida ham, “ashula” ma'nosida ham qo'llagan:

Vale suvlar bo'lub oyina ohang,

O'lang aylab ayon ul ko'zguda zang.

(“Farhod va Shirin” dostonidan).

Dasht uzra o'lang so'nggicha ketkay,

To maqsad-u manzilga yetkay.

(“Layli va Majnun” dostonidan).

Bu yerda birinchi misoldagi o'lang – o't, g'iyoh, ikkinchi misoldagi o'lang – ashula mazmunida kelyapti.

Koshg'ariy o'Ining ho'lga aylanishini dialektal hodisa deb aytgan. Tilimizdagi hovuch so'zi asli ovuch deyilgan. Hozirgi ho'kiz so'zining asli ham oküz(o'kiz) bo'lgan. Garchi, o't-o'langa ho'kizni oralatib yuborish nojoiz tuyulsa-da, gap kelganda ho'kiz haqida ham ikki og'iz so'z aytib o'tsak. Bu so'zning bugungi “ho'kiz” ma'nosidan tashqari qadimda “cho'l odami”, “to'g'riso'z, ochiqko'ngil kishi” ma'nosida ham qo'llaganlar. Lekin buning aksi o'laroq, qo'pol, ahmoq, betarbiya odami ham ho'kiz deyishgan va ayni sifat hozirgacha xalq orasida saqlanib qolgan.

Eshqobil SHUKUR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

QACHON TO'G'RI YOZAMIZ?

Tanishlarimdan biri aytib qoldi: “O'g'lim sinf ishida “xarid” so'zini “harid” tarzida yozgan ekan, ustozidan tanbeh eshitib, past baho olibdi. Men ham uni xato yozganlikda ayblabman. Lekin dehqon bozorida “Haridingiz uchun rahmat” degan yozuvni ko'rganimdan keyin o'g'limni nohaq ranjitganimni tushundim”.

Avvallari “Bozor ko'rgan echki-dan qo'rq” deyishardi. Bugun bozor-u do'konlarni aylanib, tilimiz kelajagidan qo'rquvga tusha boshladim. Xo'p, “x” va “h” harflarini xato yozishdan imlo lug'ati yordamida qutularmiz. Lekin matnlarda “o”, “g”, “q” harflarining “u”, “g”, “k” shaklida yozilishiga nima deymiz? Yana bir masala: “o”, “g”, “q” harflari tepasiga aynan “i” belgisi qo'yiladi, tutuq belgisi (') emas. Bunday xatolarni sanab adog'iga yetmaysan. Bozorlar, do'konlar jamoat joyi sanaladi. Kattalar ham, yoshlar ham bu joylarga deyarli har kuni kiradi. Demakki, ularlari har bir matn ong ostiga muhrlanib qoladi. Agar ularlari imloviy xato ketsa, ko'pgina iste'molchilar shu holicha qabul qiladi.

O'ylanib qolasan kishi. Nahotki, “Davlat tili haqida”gi



qonunning qabul qilinganiga 36 yil, 1993-yil 2-sentyabr-dagi “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida”gi qonunga 32 yil bo'lsa-yu, tokay bunday xatoliklarga duch kelamiz?! Yanada g'aroyibi, “avtomoy-ka”, “xoztovar”, “stroymaterial”, “knigi” qabilidagi so'zlarni qaysi tilda o'qish va tushunish kerak? Davlat tili qoidalariga rioya qilish degani faqat yangi imlodagi bexato yozish degani emas, axir, farosatni ham ishlatish kerak.

Davlat tilini rivojlantirish departamenti va uning hudud-lardagi bo'limlari tomonidan ishchi guruhrar tuzilgan holda, “Davlat tili haqida”gi va “Reklama to'g'risida”gi qonunlar ijrosi

Abduvali BO'RIYEV